

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«Himoyaga ruxsat etildi»
Ijtimoiy – iqtisodiy fakultet dekani
_____ t.f.n., dots.N. Dehqonov
« _____ » _____ 2017 y.

5111600 – «Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi» yo‘nalishi
bitiruvchisi

YUsupov Akmal Akramjon o‘g‘lining

**FUQAROLIK HUQUQIDA SHARTNOMALARGA
QO‘YILADIGAN UMUMIY TALABLAR**

mavzuidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etilsin»
«Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari
va huquq talimi»
kafedrasi mudiri B.A. Talapov

BMI rahbari: yu.f.n.dotsent
M.A.Akaeva

“ _____ ” _____ 2017 y.

Mundarija

Kirish	4-8
1-bob. Fuqarolik huquqida shartnomalarning o‘rni va ahamiyati.....	9-23
1.1. Mamlakatni modernizatsiya qilish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishda shartnoma institutining tutgan o‘rni.....	9-19
1.2. SHartnomalarning huquqiy tartibga solish vositalari tizimida tutgan o‘rni va qo‘llanish sohalari.....	19-23
2–bob. SHartnoma tushunchasi va bozor munosabatlari tizimida shartnomaviy munosabatlarning tutgan o‘rni.....	24-49
2.1.SHartnoma tushunchasi va turlari.....	24-35
2.2.Bozor munosabatlari sharoitida shartnomaviy munosabatlarning tutgan o‘rni.....	35-49
3-bob. SHartnomaga qo‘yiladigan talablarning o‘ziga xos jihatlari.....	50-66
3.1.SHartnomaga qo‘yiladigan talablar tushunchasi.....	50-54
3.2.SHartnoma tuzuvchilarning shartnoma tuzish layoqati tushunchasi.....	54-66
Xulosa	67-70
Foydalanilgan adabiyotlar	71-74

Mavzu: Fuqarolik huquqida shartnomalarga qo‘yiladigan talablar

Reja:

Kirish .
1-bob. Fuqarolik huquqida shartnomalarning o‘rni va ahamiyati. 1.1. Mamlakatni modernizatsiya qilish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishda shartnoma institutining tutgan o‘rni. 1.2. SHartnomalarning huquqiy tartibga solish vositalari tizimida tutgan o‘rni va qo‘llanish sohalari.
2–bob. SHartnoma tushunchasi va bozor munosabatlari tizimida shartnomaviy munosabatlarning tutgan o‘rni. 2.1.SHartnoma tushunchasi va turlari. 2.2.Bozor munosabatlari sharoitida shartnomaviy munosabatlarning tutgan o‘rni.
3-bob. SHartnomaga qo‘yiladigan talablarning o‘ziga xos jihatlari. 3.1.SHartnomaga qo‘yiladigan talablar tushunchasi. 3.2.SHartnoma tuzuvchilarning shartnoma tuzish layoqati tushunchasi.
Xulosa .
Foydalanilgan adabiyotlar .

Kirish

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasining bosh maqsadi - ozod va obod vatan, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlatdan fuqarolik jamiyati sari o‘tishdir. Ana shu maqsadni amalga oshirish uchun respublikamizda mustahkam belgilangan huquqiy poydevor asosida demokratik va huquqiy davlatdan adolatli fuqarolik jamiyatiga o‘tishning uzoq muddatli, izchil konsepsiyasi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat. Bu mustaqil, demokratik, huquqiy davlat. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta’minlab beradigan davlatdir.»¹ Yuqorilardagidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda davlatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, tub o‘zgarishlar intellektual mulkni rivojlantirish va mavqeini oshirishni taqozo etadi.

2017 yil 14 yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda davlatimiz rahbari SHavkat Mirziyoev so‘zga chiqdi va turli sohalaridagi bir qator muhim kamchiliklar haqida so‘z yuritdi, -"Barchamiz so‘zsiz tushunamizki, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish iqtisodiy va moliyaviy organlarning samaradorligiga bog‘liq. Ular yaqin va uzoq istiqbolda mo‘ljallangan, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga doir strategik vazifalarni nafaqat ishlab chiqish, balki amalga oshirishni ta’minlashlari zarur".²

¹ «Адолат - қонун устиворлигида». И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг иккинчи чақириқ VI сессиясиги маърузаси, Халқ сўзи., 2001 йил 30 август. Манба: Norma.uz.

² Мирзиёев Ш.М. 2017 йил 14 январь куни Вазирлар Маҳкамасининг мамлакатимизни 2016 йилдаги ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунларини ҳар томонлама таҳлил қилиш ҳамда республика ҳукуматининг 2017 йил учун иқтисодий ва ижтимоий дастури энг муҳим йўналишлари ва устувор вазиғаларини белгилашга бағишланган кенгайтирилган мажлисидаги сўзлаган нутқи.

Huquqiy sohada amalga oshirilgan islohotlarning eng muhim jihati bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining bevosita tartibga soladigan yangi qonunchilik bazasini vujudga keltirish va uni doimiy ravishda shakllantirib borish bilan belgilandi. Qabul qilingan yangi qonunlar asosida iqtisodiyotimizda vujudga kelgan yangidan-yangi munosabatlar tartibga solina boshladi. SHu ma'noda mamlakatimizda huquqiy tartibga solishning izchil mexanizmi yaratildi. Bu esa xalqimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim o'rinni egallaydi.

SHu sababli mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimov tomonidan "Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyat darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyat - demokratik jamiyat poydevori va huquqiy tizimning etuklik ko'rsatkichidir"¹ – deb alohida e'tirof etilgan.

O'tgan XX asrdan boshlangan va doimiy, uzluksiz tus olgan ilmiy-texnika inqilobi nafaqat inson turmushi, balki u kirishadigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni ham tubdan o'zgartirib yubordi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «Hayotimizning barcha sohalarini erkinlashtirishga doir islohotlarni faol davom ettirish, shu asosda inson, uning huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat va boylik sifatida jamiyatimiz hayotida asosiy o'ringa qo'yish doimiy e'tibor markazimizda bo'ladi.

Biz bundan buyon ham «Inson manfaati har narsadan ulug'» degan olijanob shiorni amalda ruyobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni ishga solamiz»²- deb ta'kidlab o'tganlar.

Bozor munosabatlari o'z mohiyatiga ko'ra birinchi galda taraflar o'rtasidagi

¹ Каримов И.А. "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси". 2010 йил 12 ноябр. Манба: "NORMA" Ахборот ҳуқуқий тизими. <http://www.norma.uz>.

² Каримов И.А. Ватанимиз ва халқимизга садоқат билан хизмат қилиш – олий саодатдир. Тадбиркорлар ва ишбилармонлар ҳаракати – Ўзбекистон либерал-демократик партияси VI қурулғойидаги маъруза. 2007 йил 6 ноябрь. –Т.: Ўзбекистон, 2007. –Б. 33

munosabatlardan kelib chiqadi. Ular orasida shartnomalar muhim o‘rin egallaydi. Shartnoma huquqiy tartibga solish vositalari ichida eng universal, moslashuvchan, taraflarni manfaatlarini teng huquqliligini ta’minlovchi beqiyos yuridik vositadir.

Ijtimoiy munosabatlarni shartnomalar orqali tartibga solish chuqur demokratik mohiyatga ega bo‘lib, bunda u birinchidan, taraflarning teng huquqliligini, o‘zaro manfaatdorlik va manfaatlar muvozanatini, huquq va majburiyatlar uzviy birligini ta’minlaydi. Bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari shartnoma munosabatlari tobora kengayib va chuqurlashib boradi. Bu esa fuqarolar va yuridik shaxslarni o‘z ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun turli shartnomaviy munosabatlarga kirishishini ta’minlaydi.

Eng muhimi shundan iboratki, mamlakatimiz sivilistika fanida shartnomalarning amal qilish doirasi va shartnoma institutining qo‘llanilishi ilmiy-nazariy jihatdan dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Mazkur malaka mavzusining dolzarbligi yuqoridagi omillar, shuningdek fuqarolik huquqida shartnomaviy munosabatlarni o‘zida ifodalaydigan qonun hujjatlarining rivojlanish bosqichlarida shartnoma institutini takomillashtirish muammolarini tadqiq etish bilan uzviy bog‘liqdir.

Bitiruv malaka ishi mavzusini o‘rganilganlik darajasi. SHartnomalarni ilmiy-nazariy tadqiq etgan olimlardan M.Braginskiy, V.Vitryanskiy, N.D.Egorov, O.S.Ioffe, A.P.Sergeev, YU.A.Tixomirov, YU.K.Tolstoylarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Mazkur olimlarning asarlarida fuqarolik huquqida shartnomalarning o‘ziga xosligi to‘g‘risida bir qancha ilmiy fikrlar va xulosalar ishlab chiqilgan va bu qarashlar sivilistika fanida shartnomalar institutining rivojlanishiga o‘ziga xos hissa bo‘lib qo‘shilgan.

O‘zbekistonda M.X.Baratov, S.B.Boboqulov, I.B.Zokirov, B.I.Ibratov, O.Oqyulov, H.R.Rahmonqulov, SH.N.Ro‘zinazarov va shu kabi olimlar tomonidan shartnomalar umumiy asoslarda va fuqarolik huquqining muayyan mavzularida tahlil etilgan.

Bitiruv malaka ishining maqsad va vazifalari. Malaka ishining maqsadi fuqarolik huquqida shartnomalarning o‘rni va ahamiyati, shartnomalarning huquqiy tartibga solish vositalari tizimida tutgan o‘rni va qo‘llanish sohalari, fuqarolik huquqida shartnomaviy huquqiy munosabatlar, shartnomaga qo‘yiladigan talablarning o‘ziga xos jihatlari va shartnomalarni takomillashtirish borasida tegishli takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malaka ishining vazifalari:

- Fuqarolik huquqida shartnomalarning o‘rni va ahamiyatini ochib berish;
- Shartnoma tushunchasi va funksiyalarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritish;
- Bozor munosabatlari tizimida shartnomaviy munosabatlarning o‘rnini aniqlash;
- shartnomaga qo‘yilgan talablarning o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilish;
- shartnomalarga qo‘yilgan talablar bo‘yicha xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malaka ishining ob’ektini shartnomalarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish, shartnomalarning ahamiyati, mohiyati va ularni takomillashtirish borasidagi moddiy-huquqiy muammolar tashkil etadi.

Bitiruv malaka ishining nazariy va uslubiy asoslari. Malaka ishining normativ asosini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi va shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ huquqiy hujjatlar tashkil etadi. Nazariy asosi esa O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti asarlari, davlatimizning rahbari SH.M.Mirziyoev asarlari huquqshunos olimlarning jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan darsliklari, qo‘llanmalari va ilmiy maqolalari hisoblanadi.

Bitiruv malaka ishining uslubiy asoslarini falsafaning bilish nazariyasi tomonidan ishlab chiqilgan, davlat va huquq nazariyasi tomonidan qo‘llaniladigan mantiqiy, qiyosiy, analiz va sintez, tizimlashtirish usullari tashkil etadi.

Malaka ishining tuzilishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, normativ va nazariy asoslari, uslubiy asoslari, ob’ektlari va amaliy ahamiyati, maqsad va vazifalari, ilmiy ishlanganlik darajasi va malaka ishining tuzilishi aks ettirilgan.

Malaka ishining birinchi bobi fuqarolik huquqida shartnomalarning o‘rni va ahamiyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, uch paragrafdan iborat.

Ikkinchi bobda bozor munosabatlari tizimida shartnomaviy munosabatlar tutgan o‘rni tadqiq qilingan.

Uchinchi bobda shartnomaga qo‘yilgan talablarning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilgan.

Xulosa qismida tadqiqot natijasida vujudga kelgan xulosalar asosida taklif va mulohazalar bayon etilgan.

1-bob. Fuqarolik huquqida shartnomalarning o‘rni va ahamiyati.

1.1. Mamlakatni modernizatsiya qilish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishda shartnoma institutining tutgan o‘rni.

YUrtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun obod va farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda o‘zimizga munosib o‘rin egallashda Asosiy qonunimiz mustahkam zamin bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoev: “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishda biz, ilgorigidek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahal-lalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin va xolis ommaviy axborot vositalari faol o‘rin egallaydi, deb ishonamiz.

«Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz.”- deb ta’kidladi.¹

Bugun o‘tgan davr mobaynida bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholar ekanmiz, avvalo Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplari va qoidalari negizida qabul qilingan qonun va dasturlar bo‘yicha davlat qurilishi, ijtimoiy-iqtisodiy qurilish borasida bosqichma-bosqich va izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini qayd etishimiz tabiiy, albatta.

Mamlakatimiz erishgan bunday ulkan marralarning barchasini butun dunyo tan olayotganini ko‘rib, Asosiy qonunimiz belgilab bergan mustaqil taraqqiyot yo‘li naqadar to‘g‘ri ekaniga takror va takror ishonch hosil qilmoqdamiz². Bugun

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этилиши, Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг хўшма мажлисидаги нутқи. Ш.Ш.Мирзиёев –Тошкент. “Ўзбекистон” НМИУ.2016. 56 б.

² Ислом Каримов. Ўзбекистон Конституцияси – биз учун демократик тараккиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустаҳкам пойдевордир: Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. –Т.: “Ўзбекистон”, 2009. Манба: “NORMA” Ахборот хуқуқий тизими. <http://www.norma.uz>.

Ўзбекистонимиз босиб ўтган mustaqil taraqqiyot yulini xalisna bahlar ekanmiz, ўtgan davr mabaynida biz erishgan, dunyo jamatchiligi tan olgan lamshumul yutuq va marralar, avvalambir, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish suratlari, aholi farovonligining yildan-yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz birlashtirishining tadbirlari yuksalib boryotgani – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va bixta o'ylangan maqsad, bino va nirmalarning hayotbaxsh samarasi, desak, hech qanday mublag'a bo'lmaydi.

Biz o'z umrini o'tab bo'lgan mustabid, buyruqbuzlik va rejali-taqsimot tizimidan qanchalik uzqlashganimiz sari, milliy taraqqiyot mdelimizning asosini tashkil etadigan tamoyil va nirmalarning nechog'lik to'g'ri ekaniga bo'lgan ishonchimiz shu qadar ortib bormoqda.

Bu tamoyillar, birinchi navbatda, hayotimizni mafkuradan to'la xli qilish, kommunistik qilib va qarashlardan vuz kechish, qonunning hamma uchun ustuvor bo'lishi, davlatning bosh islohitchi rlini o'ziga olishi, inqilobiy emas, aksincha, tadrijiy taraqqiyot yulidan rivojlanish, yani islohitlarni "Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay" degan bino asosida izchil va borsqichma-borsqich amalga oshirish, shuningdek, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi qidalarni o'z ichiga oladi.

Ana shu tamoyillarga amal qilgan hlda, biz o'tgan davr mabaynida haqiqatan ham juda katta tarixiy yutuqlarga erishdik va bu bilan haqli ravishda faxrlansak arziydi.

Biz erishgan ulkan marralarning eng muhimi – eski tizimdan butunlay vuz kechib, mamlakatimizni islohit etish va demokratlashtirish yulidan dadil boryotganimiz va bu jarayonning hech qachon ortga qaytmaydigan qat'iy va izchil tus olganidir.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini

ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida: - 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasining uchunchi ustuvor yo‘nalishi quyidagicha belgilandi:

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;-deb belgilandi”.

Bosib o‘tgan yo‘limizni va mamlakatimizning dunyoda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar jarayonida tutgan o‘rnini xolis va tanqidiy baholar ekanmiz, biz erishgan yutuqlarimizga mahliyo bo‘lib qolmasligimiz, ortiqcha havolanish va xotirjamlik tuyg‘usiga berilmasligimiz zarur. Bugun biz yashayotgan globallashuv va tobora kuchayib borayotgan raqobat asrida faqat chuqur islohotlar va modernizatsiya yo‘lidan tinimsiz va qatiyat bilan rivojlanib borish natijasida o‘z

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги.-Тошкент.2017 й.7 феврал ПФ – 4947-сон.

oldimizga qo‘ygan istiqbolli maqsadlarga – taraqqiy topgan, farovon yashayotgan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot darajasini taminlashga erisha olamiz¹.

Iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o‘rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratildi.

Mamlakatimiz rahbari SH.M.Mirziyoev o‘zining “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”- “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining ho‘shma majlisidagi nutqida ta‘kidlab:- Biz avvalo iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish borasidagi ishlarimizni yanada chuqurlashtirish, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish bo‘yicha boshlangan ishlarni jadallashtirishimiz kerak. Tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e‘tiborimiz markazida bo‘lishi lozim. Buning uchun xorijiy sarmoyalar va ilg‘or texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz zarur bo‘ladi.

Aynan shu asosda 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod ko‘paytirishga erishishimiz darkor. Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleks va uning lokomotivi, ya‘ni harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e‘tibor qaratiladi.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish - hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi

¹ Каримов И. “Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом – тараққиётимизнинг муҳим омилидир”, “Ишонч” газетаси, 2010 йил 8 декабрь. –Б. 1.

hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Bizning yana bir muhim vazifamiz - kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo'lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya'ni **«Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi»**.

SHuning uchun bundan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish - davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to'sqinlik qilish, deb baholanadi. Prinsipial jihatdan g'oyat muhim bo'lgan bu pozitsiyamizni yana bir bor alohida ta'kidlab o'tishni muhim va zarur deb hisoblayman”¹

Biz avvalo iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashuning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish bo'yicha boshlangan ishlarni jadallashtirishimiz kerak. Tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim. Buning uchun xorijiy sarmoyalar va ilgor texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz zarur bo'ladi.

Aynan shu asosda 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod ko'paytirishga erishishimiz darkor. Qishloq xo'jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya'ni harakatga keltiruvchi kuchi bo'lgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этамиз, Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг хўшма мажлисидаги нутқи. Ш.Ш.Мирзиёев –Тошкент. "Ўзбекистон" НМИУ.2016. 56 б.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiyl mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish - hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

Bizning yana bir muhim vazifamiz - kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi. Men takror bo'lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya'ni **«Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi»**.

SHuning uchun bundan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilish - davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to'sqinlik qilish, deb baholanadi”¹.

YUrtimiz salohiyatining tobora yuksalib borayotgani, so'nggi yillarda ishga tushirilgan yangi zamonaviy quvvatlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivoji, tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, mamlakatimizda yaratilgan nihoyatda qulay investitsiya muhiti bizga 2010 yilda quyidagi rejalarni belgilashga asos beradi.

Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizshshg salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan navbatdaga muhim ustuvor yo'nalish — bu asosiy etakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilmakommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этамиз, Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг хўшма мажлисидаги нутқи. Ш.Ш.Мирзиёев –Тошкент. ”Ўзбекистон” НМИУ.2016. –Б.14-15

molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat¹.

SHu o‘rinda xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan yoki yaratgan o‘z mulkning daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini taminlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor avvalo shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. SHuning uchun ham tadbirkorlar o‘z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko‘paytirishi, o‘z mulkiga o‘zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim. Ayni shu maqsadda bozor iqtisodiyotining negizi hisoblangan xususiy mulkka nisbatan davlat tomonidan berilayotgan asosiy kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida"gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

SHuningdek, boshqaruv tizimini takomillashtirish, ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida "Tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berish tartib-qoidalari to‘g‘risida"gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur bo‘lgan ruxsat berish tartib-qoidalarining qat’iy cheklangan ro‘yxati va turlarini aniq belgilab qo‘yish, qonunda nazarda tutilmagan ortiqcha ruxsatnoma va ruxsat berish tartib-qoidalarining yangi turlari kiritilishini qonun bilan keskin taqiqlash zarur².

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo‘yish vaqti keldi. Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy ananalarimizga, xo‘jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to‘la mos keladi. Bunday biznesni tashkil qilishning

¹ Каримов И.А. Асосий вазифамиз Ватанимиз таракқиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. 2009 йилнинг ялпи яқунлари ва 2010 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маъруза, 2010 йил 29 январь. Манба: Norma.uz.

² Каримов И.А. "Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси". 2010 йил 12 ноябр. Манба: Norma.uz.

qonunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinlarining ochilishiga sharoit tug'iladi.

Hozirgi vaqtda yana bir muhim masala - mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes, birinchi navbatda xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni taminlay oladigan qonunlarni qabul qilish masalasi biz uchun dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonning bu yilgi yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 50 foizdan ortib borayotganiga qaramasdan, afsuski, bu soha real iqtisodiyotimizda, avvalambor sanoatda etakchi o'rinni egallay olmayapti. Ushbu vazifani hal etish uchun "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunning yangi tahririni tayyorlash zarur. Bu qonunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil qilish yo'llarini soddalashtirish, ularning faoliyati uchun ko'proq erkinliklar berishni ko'zda tutish lozim. Ushbu sektorni kreditlash, resurslardan foydalanish, davlat buyurtmalarini olish, tadbirkorlik sub'ektlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni sotish uchun yangi imtiyozlar berish, xalqaro amaliyotga muvofiq daromadlarning yillik deklaratsiyasi shakliga bosqichma-bosqich o'tish, moliya va statistika hisobotlari tizimini yanada soddalashtirish, jumladan, unday hisobotlarni vakolatli davlat organlariga elektron shaklda taqdim etish kabi mexanizmlar hisobidan qo'llab-quvvatlash masalalari ham qonunda o'z aksini topishi darkor.

Hammamiz yaxshi tushunamizki, bozor munosabatlarining asosi bo'lgan raqobatni rivojlantirishda monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari katta rol o'ynaydi. Ammo, amaldagi "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi qonun bugungi kunda eskirdi va zamon talablariga javob bermay qoldi. SHuni etiborga olgan holda, "Raqobat to'g'risida"gi yangi qonunni ishlab chiqishimiz va qabul qilishimiz zarur. Ushbu qonunda monopolistik faoliyatni nafaqat tovarlar bozorida, balki moliya bozorlarida ham tartibga solishni nazarda tutish lozim. SHuningdek, birja savdolarida ham monopoliyaga qarshi mexanizmlarni, aksiyalarni sotib olish, qo'shish va birlashtirish bitimlarini tartibga

solish va nazorat qilish tartib-qoidalarini soddalashtirish bo'yicha normalarni ushbu qonunga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning 80 foizdan ortig'ini nodavlat sektor taminlamoqda. Tan olishimiz kerakki, 1991 yilda qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonun, o'tgan davr mobaynida 80 tadan ortiq qonunosti hujjati unga uyg'unlashtirilganiga qaramasdan, bugun qayta ko'rib chiqishni va yangi tahrirda qabul qilishni talab etmoqda.

Mamlakatimizning strategik muhim tarmoqlari va korxonalarida aksiyalarning nazorat paketi, tabir joiz bo'lsa, "oltin" aksiyalarni davlat ixtiyorida saqlab qolgan holda, iqtisodiyotning eng muhim etakchi tarmoqlariga xususiy investorlarni jalb qilish va ularda nodavlat sektor ulushini yanada kengaytirish zarur. Bunda bo'lajak investorlarning barcha toifalariga xususiylashtirish jarayonlarida teng sharoit yaratishni taminlash, ularda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, xususiylashtirish bitimlarining ochiqligi va oshkoraligini ko'zda tutish lozim.

YUqorida takidlab o'tilgan g'oyat muhim ahamiyatga molik qonunlarni takomillashtirish bilan birga, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining surati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda, erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan bir qator qonunlar qabul qilishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. "Kredit byurolari faoliyati va kredit axboroti almashuvi to'g'risida", "Garov reestri to'g'risida", "Rieltorlik faoliyati to'g'risida", "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida", "Innovatsiyalar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish to'g'risida"gi va boshqa yangi qonunlar shular jumlasidandir.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olar ekanmiz, biz ichki ehtiyojning o'sishiga alohida etibor qaratishimiz kerak bo'ladi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan inqirozga qarshi choralar dasturida ana shunday yondashuv asosida ish tutganimiz o'tgan yillarda o'zini to'la oqladi. Takidlash kerakki, bugungi kunda Osiyodagi ko'plab mamlakatlar aynan shunday pozitsiyaga

amal qilib kelmoqda.

SHundan kelib chiqqan holda, bizning yaqin istiqboldagi eng muhim vazifamiz boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish - istemol talabini kengaytirish maqsadida sotsial sohani rivojlantirish, mehnatga haq to'lashni yanada oshirish, xizmat ko'rsatish sektorini, infratuzilma obe'ktlarini rivojlantirishga, transport va kommunikatsiya loyihalari amalga oshirilishiga alohida etibor berishdir hamda Mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoevning:- "Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi - o'zimiz mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishni ta'minlashdan iborat.

SHunday davr keldi. Ana shu talabni, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakat strategiyasi loyixasini keng muxokama kilish davomida kelib tushgan takliflarni inobatga olgan xolda. 2017 yil uchun mo'ljallangan iktisodiy va ijtimoiy dasturning un bitta eng muxim ustuvor vazifasini belgilashni taklif etaman."- deb ta'kidlab o'tdi.¹

1.2. SHartnomalarning huquqiy tartibga solish vositalari tizimida tutgan o'rni va qo'llanish sohalari.

SHartnomalar insoniyat tomonidan eng qadimdan foydalanib kelinayotgan yuridik vosita hisobalanadi. SHartnoma barcha mavjud huquqiy tizimlarda - anglo-sakson, qita, musulmon va patriarxal (mahalliy odatlarga asoslangan) tizimlarda ham beistisno ravishda qo'llaniladi.

SHartnoma garchi faqat fuqarolik huquqida asosiy vosita sifatida ishlatiladiganday bo'lib tuyulsa ham, u xalqaro huquqda, mehnat huquqida, oila huquqida, ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, shartnomaning quyidagi sohaviy turlari mavjud:

¹ Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. 2017 йил 14 январь.- Тошкент “Ўзбекистон”, 2017.104 б.

-mehnat huquqiy shartnoma (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 72-moddasi)¹;

-xalqaro huquqiy shartnoma (O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi qonuni)²;

-oila-huquqiy shartnoma (O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 29-moddasi)³;

-xo‘jalik shartnomalari (aslida xo‘jalik shartnomalari fuqarolik-huquqiy shartnomaning bir turi bo‘lsa ham, uning iqtisodiyotdagi beqiyos ahamiyati tufayli, alohida ajratib ko‘rsatish o‘rinli bo‘lur edi. Mamlakatimizda xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha maxsus qonun - Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonun⁴ mavjud).

SHartnoma — kelishuv institutidan huquqning boshqa sohalarida ham u yoki bu darajada qo‘llanib kelinadi. Masalan, AQSHda bunday kelishuv sud bilan sudlanuvchi, prokuror bilan ayblanuvchi, sud bilan guvoh o‘rtasida ham tuzilishi mumkin. Bunday o‘zaro kelishuv har ikkala tomon uchun ham o‘zaro foydali va manfaatli bo‘lib, oxir-oqibatda jinoyatlarni fosh qilish, ularni oldini olish, jinoyatchilarni topish, jinoyatchilarga nisbatan jazo muqarrarligini ta’minlashga xizmat qiladi, ayni vaqtda ushbu maqsadlarda odil sudlovga ko‘mak bergan shaxslarga nisbatan ham rahmdillik, insonparvarlik qilishga imkon beradi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida huquqni muhofaza kiluvchi idoralar tomonidan operativ-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda ham shartnomalardan foydalaniladilar. Gap bu o‘rinda muayyan shaxslar bilan axborot — ma’lumotlar etkazib berish to‘g‘risidagi maxfiy kelishuvlar haqida bormoqda.

Mamlakatimizda jinoiy jazolarni liberallasuvi jarayonida huquqbuzar (ayblanuvchi, sudlanuvchi) bilan jabrlanuvchi o‘rtasida yarashtirish protsedurasi ham o‘z mohiyatiga ko‘ra shartnoma, kelishuv hisoblanadi deb aytish mumkin.

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1996. 1-сон, илова.

² Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1995. 12-сон, 262-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1998. 5-6-сон, илова.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1998. 9-сон, 170-модда.

Binobarin, yuqoridagilardan, shartnoma umumhuquqiy universal huquqiy tartibga solish vositasi deb xulosaga kelish mumkin. Kelgusida kishilarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonligini oshishi natijasida shartnomalarni qo'llash doirasi ham yanada kengayib boradi va u huquqning boshqa sohalarida ham foydalaniladi deb aytilsa, aslo xato bo'lmagan bo'lur edi.

Xo'sh, shartnoma umumhuquqiy vosita ekan, u holda barcha sohalar shartnomalari uchun umumiy normalar bormi, degan savol tug'iladi. Bunday savolga salbiy javob bermoq lozim. M.Braginskiy, V.Vitryanskiylarnish fikricha, xalqaro shartnomalar va fuqarolik-huquqiy shartnomalar o'rtasida faqat zohiriy o'xshashliklar mavjud xolos, shu sababli fuqarolik-huquqiy shartnomalarni ularga nisbatan hatto subsidiar (qo'shimcha, yordamchi) manba sifatida ham qo'llab bo'lmaydi¹. FKning 2-moddasi 5-qismiga ko'ra, muayyan holatlarda mehnat-huquqiy, oila-huquqiy, tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha shartnomaviy-huquqiy munosabatlarga nisbatan fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha normalarni qo'llash mumkin.

Albatta, huquqning barcha sohalarini bo'yicha shartnomalar uchun umumiy qoidalar ishlab chiqish mumkin emas va bu maqsadga muvofiq ham emas. Biroq shunga qaramay davlatning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyada shartnomalarni umumhuquqiy tartibga solish vositasi sifatidagi o'rni va vazifalari to'g'risida maxsus norma nazarda tutish foydadan holi bo'lmas edi. Eng asosiysi unda shartnomalar erkinligi o'z ifodasini topishi lozim.

SHartnomalarni vujudga kelishini kishilik jamiyatining muayyan bosqichi bilan bog'lash bo'yicha qarashlar rus olimi I.Pokrovskiy tomonidan ilgari surilgan. Uniig fikricha, urug'chilik tuzumidagi qasos olish, o'ch olish ko'pinchalik delikt majburiyatlarini vujudga kelishiga zamin tayyorlagan². Delikt (zararni qoplash burchi) kishilarni muayyan xatti-harakat, xulq-atvorni ishlab chiqishga undagan. Ushbu xulq-atvor asosida boshqalarga zarar etkazmaslik yoxud zarar etkazilgan taqdirda, uni qoplash qoidalari yotadi.

¹ Брагинский М, Витрянский В. Договорное право. –М.: Статут. 1997. –Б. 21.

² Покровский И. История римского права. –Петроград: 1918. –Б. 290-295.

Materialistik nuqtai nazardan insoniyat yovvoyi mavjudotlar olamida uning tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'lganida o'ziga xos «o'rmon qonuni» (yovvoyi jonzorlar qonuni) amal qilgan. Uning asosida kuchli hokimiyat, zo'ravonlik yotadi. Uning asosiy tamoyili «kim kuchli bo'lsa, o'sha haq» kuchli tomonga zaif tomon bo'ysunishi shart degan qoidalar hisoblanadi.

Albatta, bunday o'rmon qonuni insoniyat jamiyatidan u yoki bu joyda muvaqqat hukmron bo'lganini e'tirof etish lozim. Biroq, bu insoniyat olamining ilk bosqichida ibtidoiy tuzumda bo'lganligi aftidan unchalik to'g'ri emas. Inson ongli mavjudot. Har qanday ong muayyan ravishda oldindan ishlab chiqilgan xulq-atvorni taqozo qiladi. Bunday xulq-atvor, xatti-harakat kishilar o'rtasida kelishuv natijasi bo'lishi ham mumkin. Demak, shartnoma ongli mavjudotlar - insonlar ijtimoiy hayotining zaruriy va muqarrar hosilasi hisoblanadi. Bunday tasavvur nisbatan keng ma'nodagi talqin sifatida qabul qilinishi mumkin. Tor ma'noda esa shartnomalar - kishilarning nafaqat birgalikdagi yashashi, birgalikdagi faoliyati, balki mehnat taqsimoti tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash mahsuli deb aytish mumkin. Shartnomalarning mavjud bo'lishini davlatning mavjudligi, yuridik normalar bilan mutlaqo bog'lik qilib qo'yish ham oqilona bo'lmasa kerak. Davlat va huquq mavjud bo'lmagan sharoitlarda ham odat va axloqqa asoslangan tarzda shartnomalar mavjud bo'lgan, deb hisoblashga qandaydir moneliklar yo'q deb aytish mumkin.

Ayni vaqtda bunday shartnomalarni majburiy tarzda ijrosini ta'minlash yoxud ularni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraflarga nisbatan javobgarlik choralarini qo'llash xammani ham qo'lidan kelavermaganini qayd etish lozim, chunki shartnomaga yuridik kuch beruvchi davlat va huquq mavjud bo'lmagan. Davlat va huquqning vujudga kelishi shartnomaga kat'iy mazmun va shakl berdi va uni huquqiy tartibga solish vositasiga, vositasi bo'lganda ham qudratli vositasiga aylantirdi. Dastlabki davrlarda mulkiy munosabatlarda va harbiy sohada shartnomalar ko'prok qo'llangan (masalan, urushlarda kapitulyasiya muayyan shartlar asosida yoxud shartsiz taslim bo'lish, sulh tuzish odatdagi holga aylangan).

Keyinchalik iqtisodiy va ijtimoiy turmush rivojlangan sayin shartnoma tuzish usullari, shakllari, turlari ham tobora takomillashib borgan. Qadimgi tarix yodgorliklari - Avesto, Rim XII jadval qonunidan tortib hozirgi amaldagi shartnomalarga nazar tashlasak, bunga yaqqol guvoh bo‘lamiz. Faqat ma’muriy-buyruqbozlik tizimidagina iqtisodiyot sohasida fuqarolik-huquqiy shartnomalar o‘z mavqeini ancha yo‘qotdi va unga nisbatan formal munosabat hukmronlik qildi. SHartnomaga nisbatan e’tiborsizlik sotsialistik tuzumning iqtisodiy noqobilligiga sabab bo‘lgan omillardan biri edi, deb aytish mumkin. Bozor munosabatlari tizimiga o‘tish bilan shartnoma ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning qudratli va beqiyos vositasi sifatida namoyon bo‘ldi.

2-bob. SHartnoma tushunchasi va bozor munosabatlari tizimida shartnomaviy munosabatlarning tutgan o‘rni.

2.1. SHartnoma tushunchasi va turlari.

SHartnoma o‘ziga xos yuridik vosita sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarni bajaradi. Uning bu sohadagi ahamiyati g‘oyat serqirra ekanligini ta’kidlash lozim.

SHartnoma bu eng avvalo huquqiy tartibga solish vositasi hisoblanadi. Boshqa yuridik normalardan farqli ravishda shartnoma ijtimoiy munosabatlarning qatnashchilarini huquqiy tartibga solar ekan ushbu munosabatlar qatnashchilari erki irodasini, maqsad va hohishlarini ham hisobga olishga imkon beradi. Odatda huquqiy tartibga solishda huquqiy norma huquqiy huquqiy munosabat ishtirokchilariga qanday xatti-harakat qilish to‘g‘risida ko‘rsatma beradi, ularning xatti harakatlarini muayyan ijtimoiy samaraga ijobiy natijaga yo‘naltiradi. Huquq normasi nomuayyan doiradagi shaxslar uchun mo‘ljallangan, ularning xulq-atvorini belgilaydigan ko‘rsatma hisoblanadi. Albatta, shartnomalar ham ko‘p huquq normasi shartnomaviy munosabatlarni batafsil va atroflicha, ikir-chikirigacha tartibga solmaydi, balki faqat umumiy yo‘nalish beradi, xolos.

M.Braginskiy, V.Vitryanskiy shartnomalar tushunchasini aniqlashda eng avvalo qonun va shartnoma o‘rtasida nisbatni aniqlab olish shart, deb hisoblaydilar. Ularning ko‘rsatishlaricha ushbu masalada uch xil nuqtai nazar mavjud. «Erk-iroda nazariyasi» tarafdorlariga ko‘ra, shartnoma taraflar erki irodasi birlamchi, qonun esa yoxud erk irodaga qo‘shimcha yoxud unga cheklovchi vazifani bajaradi. «Qonun ustuvorligi» nazariyasiga ko‘ra, shartnoma qonundan hosila bo‘lgan huquqiy samara beradi xolos. Empirik nazariyaga ko‘ra taraflarning erki irodasi ongli ravishda faqat muayyan iqtisodiy samaraga qaratilgan va ayni vaqtda bunda shartnomaning oqibatlarini uni ro‘yobga chiqarish vositasi sifatida fikr qilinadi va bu haqda taraflar aniq tasavvurga ega bo‘lmasliklari ham mumkin va amalda shunday bo‘ladi ham. Qonun ham shartnoma ham tartibga

solvuchi vazifani bajaradi. Biroq bunda qonun normasi bilan shartnoma shartlari o'rtasida ikkita muhim farq mavjud:

1) shartnoma taraflarning erk izxori bo'lsa, huquq normasi - uni qabul qilgan organning erk irodasi izxori hisoblanadi;

2) har ikkalasining amal qilish doirasi ham turlichadir: shartnoma faqat uning taraflari huquq va majburiyatlarini belgilaydi va shartnomada ishtirok etmaydigan shaxslarga aslo ta'sir ko'rsata olmaydi normativ hujjat esa, odatda, barcha uchun yoki muayyan guruh sub'ektlar uchun taalluqli bo'ladi¹.

SHartnoma so'zi o'zining tom ma'nosiga ko'ra «shart» va «noma» degan so'zlardan tarkib topgan so'z birikmasi bo'lib, «shartlar to'g'risidagi yozuv xat» degan ma'noni anglatadi. SHartnomaning bunday tom ma'nosiga Vazirlar Mahkamasida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.Karimov alohida urg'u bergan edi va shart, bajarish lozim, ko'rsatma ma'nosida talqin etib, shartnoma so'zi o'zbek tilida o'ziga xos ma'no kasb etishi, bu tilimiz va xalqimiz donoligidan dalolat berishini ko'rsattan edi.

SHartnoma tushunchasi legal va doktrinal ma'noda farqlanadi. Doktrinal tushunchasi ilmiy adabiyotlarda o'z ifodasini topadi va u xilma-xil tarzda talqin etilishi mumkin. SHartnoma qanchalik qadimiy bo'lsa, shartnoma tushunchasi ham shunchalik qadimiydir. Qadimgi Rimda shartnomalar contractus deb atalgan bo'lib, u contrahere, ya'ni tortish, eyish fe'lidan olingan. G.Derpburni ko'rsatishicha, ushbu ibora dastlabki davrlarda huquqiy munosabat tushunchasi bilan bir xil bo'lgan. Keyinchalik majburiyatlarni bo'lingandan keyin contractus da'vo bilan ta'minlangan convention (kelishuv) sifatida karalgan va bu bilan himoyadan mahrum bo'lgan boshka kelishuv (pactum)dan farqlangan². Qadimgi Rim yuristlari shartnomaga uch xil nuqtai nazardan qaraganlar:

- huquqiy munosabatni vujudga keltirish uchun asos;
- xuddi shu asosda vujudga kelgan huquqiy munosabatning o'zi;

¹ Брагинский М, Витрянский В. Договорное право. –М.: Статут. 1997. –Б. 9.

² Дерпбург. Пандекты. Обязательственное право. –М.: 1900. –Б. 18.

- tegishli huquqiy munosabatni o'ziga qabul qiladigan shakl.

O.S.Ioffe shartnomani quyidagicha talqin etadi:

- bir necha shaxslarning kelishuvi;

- kelishuv asosida yuzaga kelgan majburiyat;

- taraflarning erk-irodasi asosida vujudga kelgan majburiyatni qayd etuvchi hujjat.

M.K.Suleymenov shartnomaga quyidagicha ta'rif beradi:

«SHartnoma yuridik fakt sifatida shartnomani huquqiy munosabat sifatida yoki shartnomaviy huquqiy munosabat sifatida vujudga kelishga asos bo'ladi. SHartnoma yuridik fakt sifatida va huquqiy munosabat sifatida - bu shartnomaning mustaqil qirralari hisoblanadi, uning rivojining turli tomonlaridir».

Sivilist olim N.D.Egorov shartnomaning xamma jihatlarini qamrab oladigan tushuncha ishlab chiqishga urinadi: «SHartnoma deganda, majburiyatning asosida yotuvchi yuridik faktni ham, shartnoma majburiyatning o'zini ham va nihoyat majburiyat huquqiy munosabatlarini belgilash fakti mustahkamlangan hujjat tushuniladi»¹.

Sivilistika fanining hozirgi avlodi ham shartnomalarga o'zicha doktrinal ta'rif berishga urinmoqda. Masalan, XXI asr boshida quyidagi ta'rif ham ilmiy muomalaga kiritildi: «SHartnoma deganda, bir necha shaxslarni shaxsiy manfaatlarni ro'yobga chiqarish maqsadlarida bir-birlariga nisbatan sub'ektiv jihatdan mumkin bo'lgan (imkon bo'lgan) yuridik yoki faktik (amaliy) harakatlarni sodir etish bo'yicha erkin kelishilgan, harakatlarni sodir etish bo'yicha erkin kelishilgan zohiriy (tashqi jihatdan) ob'ektlashtirilgan ahd (niyat) tushuniladi». Ushbu ta'rif o'ziga xos (original) ekanligini ta'kidlash lozim. Unda shartnoma muayyan ob'ektiv shaklda, taraflardan alohida, mustaqil ravishda mavjud bo'lishiga urg'u beriladi. Haqiqatan ham, garchi shartnoma taraflar ahdi, niyati bo'lsa xam, u vujudga kelgandan keyin taraflardan alohida ob'ektiv shaklda mavjud bo'ladi.

¹ Гражданское право. Под. Ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. –СПб. 1996. –Б. 428.

Ushbu holat yozma shartnomalarda barqaror va yaqqol tarzda namoyon bo‘ladi. Biroq sukut, konklyudent harakat, og‘zaki tarzda shartnomalarda barqaror tarzda namoyon bo‘lmasligini ta’kidlash lozim. Ushbu ta’rifning yana bir zaif nuqtasi bu shartnoma taraflari tomonidan faqat bir-birlariga nisbatan va shaxsiy manfaat ko‘zlab harakat qilish haqidagi qismlaridir. U holda xayr-ehson va uchinchi shaxslar foydasiga tuziladigan shartnomalarni mazkur ta’rif mazmunini qamrab ola olmaganday ko‘rinadi. Ushbu olim ta’rifida shartnomaning quyidagi jihatlariga alohida urg‘u beriladi:

- kelishuv faqat shartnomaning shakli xolos;
- ahd, niyat shartnomaning aniq mohiyatidir;
- shartnoma sub’ektiv jihatdan bajarish mumkin bo‘lishi, taraflar imkoni darajasida bo‘lishi lozim;
- taraflar shartnoma shartlarini ixtiyoriy tarzda bajarishga ahd qilish lozim;
- izhor qilish (manifestatsie) shakli kelishuv bo‘ladi;
- shartnoma yuridik jihatdan yo‘l qo‘yiladigan xulq-atvorni belgilashi lozim;
- shartnoma davlatning majburlov kuchi bilan ta’minlanadi¹.

SHartnomaning legal tushunchasi FKning 353-moddasida belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, «ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuviga shartnoma deyiladi». SHartnomani ushbu tushunchasini tahlil etadigan bo‘lsak, u holda quyidagi holatlar yaqqol namoyon bo‘ladi:

birinchidan, shartnoma taraflari ikki yoki undan ortiq bo‘lishi shart, demak yakka sub’ekt o‘z-o‘zi bilan shartnoma tuza olmaydi;

ikkinchidan, shartnoma fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoxud bekor qilish uchun asos hisoblanadi;

uchinchidan, shartnoma har doim taraflarning kelishuvi tarzida mujassamlanadi, kelishuv esa faqat o‘zaro tenglik, ixtiyoriylik va to‘la rozilik (konsensus) asosidagina vujudga kelishi mumkin.

¹ Гражданское право. Под. Ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. –СПб. 1996. –Б. 428.

YUqorida FKning 353-moddasi 1-qismida berilgan shartnoma tushunchasi tahlil etildi xolos. Agar FKda shartnoma tushunchasi faqat bu bilan cheklanadi, deb o‘ylansa xato bo‘lur edi. Aksincha, ushbu normada shartnoma tushunchasi g‘oyat keng ma‘noda talqin etiladi va natijada sivilist olimlar tomonidan shartnomaga berilgan doktrinal ta‘riflardagi juda ko‘p belgilar legal ta‘rifda o‘z ifodasini topgan, deb hisoblash mumkin.

SHartnomalarga FKning 9 bobida (bitimlar) nazarda tutilgan ikki va ko‘p taraflama bitimlar to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llaniladi (FKning 353-moddasi 2-qismi). Ushbu normada shartnoma va bitim o‘rtasidagi nisbat berilgan. Ushbu nisbat qadimgi Rim sivilistlarini «har qanday shartnoma bitimdir, biroq har qanday bitim shartnoma emas», degan matalida yaqqol ifodalangan. Bitimlar doirasi shartnoma doirasiga nisbatan kengrokdir. Bir taraflama bitimlar hech qachon shartnoma hisoblanmaydi. Ayni vaqtda ikki va undan ortiq taraflar erki irodasi bir yo‘nalish bo‘yicha ketgan, bir ob‘ektga yo‘naltirilgan bo‘lmasa (masalan, er-xotin vasiyatnomasi), shartnoma tusini oladi. Bitim - bu harakat. Agar bir necha sub‘ektlar harakatlari muayyan doirada uchrashsa (to‘qnashsa emas) va o‘zaro kelishuv tusini olsa, u shartnoma shakliga kiradi. Ko‘p tomonlama bitimlarni shartnoma sifatida e‘tirof etish fuqarolik huquqiy tartibga solishni soddalashtirishda muxim ahamiyatga ega. Bunda bitimlar to‘g‘risidagi juda ko‘p normalarni shartnomalar to‘g‘risidagi normalarda aynan mexaniq ravishda takrorlashga hojat qolmaydi. To‘g‘ri, ayrim mualliflar bitim va shartnoma o‘rtasida muayyan farqlar mavjudligiga ham urg‘u beradilar. Masalan, B.Puchinskiy «shartnomaning roli va funksiyasi an‘anaviy ravishda tushuniladigan bitimga nisbatan ancha keng, shartnoma nafaqat huquq va majburiyatlarni belgilaydi, balki sub‘ektlar tomonidan mazmuni kelishuvda mujassamlangan muayyan predmetli harakatlarni sodir etishni nazarda tutadi, shartnoma nima ro‘yobga chiqarilishi lozimligini va taraflar harakatlarini sodir etishga qanday yuridik talablar qo‘yilishini belgilaydi»¹.

¹ Каранг: Гражданское право. Учебник. Т.2. Е.А.Суханов тахрири остида. –М.: Бек. 1993. –Б. 42.

Fikrimizcha, bitim va shartnoma o'rtasida tafovutlar bor, biroq bu tafovut umumiylik va alohidalik kategoriyalari o'rtasidagi farqlar bilan bog'liq, xolos. Binobarin, ko'p tomonlama bitimlar to'g'risidagi normalarni shartnomalarga nisbatan joriy etish to'g'risidagi FKning ko'rsatmasi (FKning 353-moddasi 2-qismi) maqsadga muvofiq bo'lgan.

SHartnomaning turlari.

SHartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarning o'zaro taqsimlanishiga qarab ***bir tomonlama, ikki tomonlama*** va ***ko'p tomonlama*** shartnomalarga bo'linadi.

Bir tomonlama shartnomada ishtirok etayotgan taraflarning birida faqat huquq bo'lib, hech qanday majburiyat bo'lmaydi, ikkinchi tarafda esa faqat majburiyat bo'ladi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini o'z vaqtida qarz beruvchiga to'lash majburiyatiga va kreditor esa uni talab qilish huquqiga ega.

Ikki tomonlama shartnomada esa har ikki taraf ham mustaqil huquq va majburiyatga ega bo'ladi. Bunday shartnomaga oldi-sotdi shartnomasini misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnoma bo'yicha sotuvchi sotilgan ashyoning bahosini talab qilish huquqiga ega bo'lib, sotilgan ashyoni oluvchiga topshirishga majbur, oluvchi esa – olayotgan ashyoning bahosini to'lashi zarur bo'lib, sotib olingan ashyoni talab qilib olishga haqli.

SHartnomalar ***haq baravariga*** va ***tekinga*** tuziladigan shartnomalarga bo'linadi. Haq baravariga tuziladigan shartnomalar bir taraf topshirgan mulki, qilgan xizmati evaziga pul yoki mulk bilan haq oladi. Masalan, bir taraf vaqtinchalik foydalanish uchun mulkni ijaraga oluvchi undan foydalangani uchun ijara haqi to'lashga majbur bo'ladi. Bunday haq baravariga tuziladigan shartnomalarga oldi-sotdi, mahsulot etkazib berish, ayirboshlash, pudrat va boshqa ko'plab shartnomalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Agar qonun hujjatlaridan boshqacha qoida kelib chiqmasa, shartnomaning mazmuni-mohiyatidan o'zgacha hol anglashilmasa, shartnoma haq evaziga tuzilgan shartnoma deb hisoblanadi.

Tekinga tuziladigan shartnomada esa bir taraf boshqa bir taraf foydasiga haq olmay, biror-bir mulkni topshirish, biror ishni bajarishi mumkin. Masalan, hadya shartnomasi bo'yicha mulk egasi o'z mulkini boshqa bir shaxsga tekinga beradi. Tekin foydalanish, foizsiz qarz shartnomalari ham bepul tuziladigan shartnomalarga kiradi.

SHartnomalar tuzilish paytiga va mazmuniga qarab *konsensual* va *real* shartnomalarga bo'linadi.

Konsensual shartnomalar huquq va majburiyatlar taraflarning kelishuvlari asosida qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirganlari zahoti tuzilgan hisoblanadi. "Konsensual" so'zi lotincha "konsensus" so'zidan olingan bo'lib, "kelishuv" ma'nosini bildiradi. Konsensual shartnomaga misol qilib oldi-sotdi, mahsulot etkazib berish, pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko'rsatsa bo'ladi. Fuqarolik huquqida aksariyat ko'pchilik shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.

Real shartnomalar bo'yicha huquq va majburiyatlar taraflar o'zaro kelishgan va shartnoma narsasi ashyo yoki pul topshirilgan paytdan vujudga keladi.

"Real" so'zi latincha "res" so'zidan olingan bo'lib, "ashyo" ma'nosini bildiradi. Real shartnomaga misol qilib qarz, omonat, hadya, tekin foydalanish shartnomalarini ko'rsatish mumkin.

Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar umumiy qoida bo'yicha shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma tuzishda qatnashgan taraflar uchun paydo bo'ladi. Ayrim hollarda shartnoma uchinchi shaxs foydasiga tuzilishi ham mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga tuzilgan shartnomaga misol qilib sug'urta shartnomasini ko'rsatish mumkin. Uchinchi shaxs shartnomada alohida taraf hisoblanmaydi. Biroq, FKning 362-moddasida ko'rsatilganidek, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, uchinchi shaxs shartnoma bo'yicha o'z huquqidan foydalanish niyatini qarzdorga bildirgan paytdan boshlab taraflar o'zlari tuzgan shartnomani uchinchi shaxsning rozilgisiz bekor qilishlari yoki o'zgartirishlari mumkin emas.

SHartnoma tuzgan shaxs shartnomadan kelib chiqqan majburiyatning uchinchi shaxsga nisbatan bajarilishini shart qilgan bo'lsa, bu haqda shartnomada boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, majburiyatning bajarilishini shartnomani tuzgan shaxs ham, foydasiga majburiyatning bajarilishi ko'rsatilgan uchinchi shaxs ham talab qilishi mumkin.

Agar uchinchi shaxs o'ziga shartnoma bo'yicha berilgan huquqdan voz kechsa, shartnoma tuzgan shaxs, agar shartnomaning mazmuniga xilof kelmasa, bu huquqdan o'zi foydalanishi mumkin

Ommaviy shartnoma.

SHartnomalar, shuningdek ommaviy shartnoma, qo'shilish shartnomasi va dastlabki shartnoma kabi turlarga ham bo'linadi.

Tashkilot tarafidan tuzilgan hamda uning bunday tashkilot o'z faoliyati xususiyatiga ko'ra o'ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirish shart bo'lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, jamoat transportida yo'lovchi tashish, aloqa xizmati, elektr quvvati bilan ta'minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va boshqalarni) belgilab qo'yadigan shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko'rishga haqli emas (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari).

Tovarlar, ishlar, xizmatlarning bahosi; shuningdek **ommaviy shartnomaning** boshqa shartlari hamma iste'molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi. Tashkilotning iste'molchiga tegishli tovarlarni berishi, xizmatlar ko'rsatishi, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo'la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi. Tashkilot ommaviy shartnoma tuzishdan asossiz bosh tortganida xaridor (mijoz) uni sud orqali shartnoma tuzishga majbur qilish imkoniyatiga (FK, 358-modda) ega. Maishiy pudrat, yo'lovchi tashish, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomalari ommaviy shartnomalardir.

SHartlarini taraflardan biri formulalar yoki boshqa standart shakllarda ta'riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga butunlay qo'shilish yo'li bilan qabul qilishi mumkin bo'lgan shartnoma qo'shilish shartnomasi deyiladi. Bunday shartnomalarga misol qilib havo va temir yo'l transportida yuk va yo'lovchilar tashish shartnomalarini ko'rsatish mumkin. Odatda, bunday shartnomalar mazmuni hamma uchun deyarli bir xil bo'lib, oldindan belgilab qo'yiladi va binobarin, mijoz uning shartlarini boshqacha tuzishni taklif etish imkoniyatiga ega emas. Biroq qo'shilish shartnomasi mijozning o'z ixtiyori, erki va irodasi bilan shartnomaga qo'shilishini bildiradi. Bunday shartnomalarni aslo bir tomonlama bitim deb hisoblash mumkin emas. Qo'shilish shartnomasini bekor qilish yoki shartnomalarini o'zgartirish asoslari FKning 360-moddasida nazarda tutilgan.

Dastlabki shartnoma bo'yicha taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish haqida dastlabki shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida shartnoma tuzish (asosiy shartnoma) majburiyatini oladilar.

Bundan tashqari shartnomalarni: birinchidan, *mulkni topshirishga qaratilgan*; ikkinchidan, *ishlarni bajarishga qaratilgan*; uchinchidan: *xizmatlar bajarishga qaratilgan*; to'rtinchidan, *turli xil tuzilmalarni ta'xis etishga yo'naltirilgan* to'rt guruhga bo'lish mumkin. Quyida ularni yanada kengroq ko'rib chiqamiz.

Birinchi guruhda mulkni topshirish asosida muhim mezon sanaladi va o'z navbatida mulkni haq evaziga va tekinga topshirishni chegaralash imkonini beradi. Nihoyat, mulkni haq evaziga va tekinga topshirishga qaratilgan shartnoma o'tkaziladigan huquq hajmiga ko'ra ajratiladi. Natijada to'rtta kichik guruh tashkil topadi. Bularga mulkni haq evaziga xo'jalik yurituvga yoki operativ boshqaruvga yoxud mulk qilib topshirish (oldi-sotdi, ayirboshlash, renta va umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joyni berish, qarz va kredit, bank omonati va bank hisobvarag'i), mulkdan haq evaziga foydalanishga topshirish (ijara shartnomasi, uy-joy ijarasi, franshizing), tekinga mulk qilib xo'jalik yuritish, operativ boshqarishga topshirish

(hadya), haq evaziga foydalanishga (franshizing) shuningdek, tekinga foydalanishga topshirish (ssuda) kiradi.

Ikkinchi guruhning xususiyati shundaki, majbur bo'lgan shaxsning harakatlari undan ajratiladigan natijani keltirib chiqaradi va shu natija shartnoma predmeti bo'ladi. Ularni ichki guruhga bo'lishga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur holatda muayyan yuridik-texnik belgiga ko'ra qo'llaniladi, ya'ni: tasodifan natijaga erisha olmaslik xavfi qaysi tarafga tegishli bo'lish. Bunda tavakkalchilik xavfi pudrat shartnomasida - pudratchiga; ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari pudrati shartnomasida – buyurtmachiga yuklash mos keladi.

Bugungi kunda ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatishga oid shartnomalar mustaqil shartnoma turlari hisoblanib, qonunda ular o'rtasidagi umumiylikka ham e'tibor berilgan. Mazkur holatni biz ilmiy tekshirish va texnologiya ishlari va haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasiga doir boblarga muayyan darajada pudrat shartnomasiga doir havola normalar borligida ko'rishimiz mumkin (masalan, FK 694-moddasida berilgan havola).

Uchinchi guruhga kiruvchi (xizmat ko'rsatishga doir) shartnomalar haq evaziga va tekinga tuziladigan shartnomalarga bo'linadi. Xizmat ko'rsatishga doir shartnomalarning aksariyat ko'pchiligi haq evaziga tuziladi (haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi, tashish shartnomasi, transport ekspeditsiyasi, bank omonati, bank hisobvarag'i, hisob-kitoblar, omonat saqlash, sug'urta vositachilik, topshiriq, mol-mulkni ishonchli boshqarish shartnomasi kabilar).

Tekinga tuziladigan shartnomalarga esa agarda qonunda, boshqa normativ xujjatlardayoki shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilgan bo'lmasa faqatgina topshiriq shartnomasini ko'rsatish mumkin. Biroq FK 818-moddasida 356-modda 4-qismiga havola mavjud bo'lib unga ko'ra, haq to'lashni nazarda tutadigan shartnomada baho nazarda tutilmagan va shartnoma shartlari bo'yicha belgilanishi mumkin bo'lmagan hollarda shartnomani bajarganlik uchun o'xshash vaziyatlarda odatda shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baho bo'yicha haq to'lanishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

To'rtinchi guruh tarkibiga kiruvchi shartnomalar tuzish maqsadini hisobga olgan holda bo'linadi. Birinchi holatda yuridik shaxsni tashkil qilish maqsadi ko'zga tashlansa (masalan, to'liq shirkatni tashkil etish, Mas'uliyati cheklangan jamiyat va Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, assotsiatsiya va ittifoqni, Aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish haqidagi ta'ris shartnomalari), keyingi holatda yuridik shaxsni tashkil etmagan holda hamkorlikda faoliyatni yuritish, ya'ni bunda huquq sub'ekti hisoblanmagan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, masalan oddiy shirkat shaklidagi tuzilmani barpo etish maqsadi ko'zga tashlanadi.

Bundan tashqari, taraflari faqat xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisoblangan xo'jalik shartnomalari ham borki ular o'ziga xos xususiyatlari, taraflari va ularning huquq va majburiyatlari, tuzish va rasmiylashtirish tartibi va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi.

Xo'jalik shartnomasi deb, taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuvga aytiladi.

SHu bilan bir qatorda xo'jalik shartnomasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular quyidagilardir:

birinchidan – shartnoma faqat tadbirkorlik faoliyati sohasida, ya'ni foyda olish maqsadida;

ikkinchidan – shartnoma yuridik shaxslar va yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar o'rtasida;

uchinchidan – shartnoma tovarlar berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish to'g'risida;

to'rtinchidan – shartnoma faqat yozma tarzda tuziladi¹.

¹ Хўжалик (тадбиркорлик) ҳуқуқи. Дарслик. Тошкент. ТДЮИ, 2003. -179 б.

2.2.Bozor munosabatlari sharoitida shartnomaviy munosabatlarning tutgan o‘rni.

SHartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarga, agar FKning shartnoma to‘g‘risidagi umumiy qoidalar bobi va shartnomalarning ayrim turlari go‘g‘risida bayon etilgan qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, FKning majburiyatlar to‘g‘risidagi umumiy qoidalar (FKning 234-352-moddalari) qo‘llaniladi (FKning 353-moddasi 3-qismi). Demak, FKning shartnoma to‘g‘risidagi legal tushunchasida shartnoma bu majburiyat, degan norma ham o‘z ifodasini topgan, deb aytish mumkin. Majburiyat - fuqarolik huquqiy munosabat bo‘lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi:

- mol-mulkni topshirish;
- ishni bajarish;
- xizmat ko‘rsatish;
- pul to‘lash va hokazo;

- yoki muayyan harakatdan o‘zini saklashga majbur bo‘ladi, kreditor esa qarzdordan o‘zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi (FKning 234-moddasi). SHartnoma nafaqat majburiyatni vujudga keltirish uchun asos, balki majburiyat mazmunini, uni ijro etish tartibini, majburiyat buzilgan taqdirda tegishli fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralarini qo‘llashni belgilab beruvchi yuridik hujjat ham bo‘lib xisoblanadi, Biroq, shuni ham unutmaslik lozimki, shartnoma barcha turdagi majburiyatlarga emas, balki shartnomaviy majburiyatlar bilan o‘ziga xos tarzda uzviy bog‘langan bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ravshanki, delikt majburiyatlari (zarar etkazishdan kelib chikadigan majburiyatlar) shartnomaviy munosabatlar tarkibiga kirmaydi.

Taraflar qat’iy rioya kiladilar. SHartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi dispozitiv huquq normalari esa taraflarga o‘z xohishlariga ko‘ra ish ko‘rishga imkon beradi. Fuqarolik qonunlarida dispozitiv normalarni keng qo‘llanishini e’tiborga olsak, u holda shartnomaviy munosabatlarda huquq normasi mutlaq hukmron bo‘lmasligiga, taraflarning xohishi, erki, irodasi ham muayyan

ahamiyatta ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. SHartnoma huquqiy tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘lganda quyidagi o‘ziga xosliklar mavjud bo‘ladi:

birinchidan, ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarga qo‘llanadi;

ikkinchidan, shartnoma muayyan xatti harakat modeli sifatida huquq normalariga tayanadi va shartnoma taraflari erki-irodasi izhori bo‘lgan shartnoma shartlariga asoslanadi;

uchinchidan, shartnoma taraflar uchun oxir oqibatda muayyan manfaat, ne‘mat vujudga keltirishga qaratiladi;

to‘rtinchidan, shartnoma uning taraflari manfaatlarini jamiyat manfaatlariga zid tarzda qondirilishini oldini oladi.

SHartnomaning yana bir funksiyasi uning iqtisodiyotdagi vazifalari bilan bog‘liq. SHartnoma orqali ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi, xizmat ko‘rsatuvchi iste‘molchi bilan bog‘lanadi. Albatta, bunday bog‘lanish har doim ham bevosita bo‘lavermaydi, ba‘zan oraliq vositalar va sub‘ektlar o‘rtaga tushishi mumkin. Biroq har qanday holda ham ularni bir birlariga bog‘lovchi vosita shartnoma hisoblanadi.

Ma‘lumki, fuqarolik muomalasida harakat qilayotgan har qanday sub‘ekt, u xoh inson, xoh yuridik shaxs, xoh davlat bo‘lsin o‘zining muayyan moddiy yoki nomoddiy ko‘rinishdagi manfaatlariga ega. Binobarin, fuqarolik muomalasida odatda ishtirokchilarning o‘zaro manfaatlari bir-birlariga mos kelmasligi oqibatida o‘ziga xos konflikt (nizo) kelib chiqish havfi vujudga keldi. SHartnoma orqali gurli sub‘ektlar o‘zaro manfaatlarni uyg‘unlashtiradilar, qandaydir umumiy mushtarak manfaatlarni vujudga keltiradilar. Ushbu vaziyatda shartnoma o‘ziga xos olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan vazifani bajaradi - fuqarolik muomalasini nizolar, murosasiz qarashlar, beomon to‘qnashuvlardan xalos qiladi. Biroq, bunda u kimningdir manfaatini ustunligini ta‘minlash orqali emas, balki ularni uyg‘unlashtirish, bir tarafni manfaatini ro‘yobga chikishini qarshi taraf manfaatini ro‘yobga chiqarish bilan bog‘lab qo‘yish orqali ish ko‘radi. Taraflar manfaatini uyg‘unlashtirish taraflarning o‘zlari tomonidan konsensus (o‘zaro rozilik) asosida amalga oshiriladi.

SHartnomaning ushbu jihati uning demokratik mohiyatini namoyon qiladi.

Nihoyat shartnoma taraflarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga asos bo'luvchi yuridik hujjat vazifasini ham bajaradi. Agarda taraflardan birortasi shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, manfaatlarini buzilayotgan taraf sud orkali o'z huquqlarini himoya qilishga haqli. Garchi «shartnoma» shartnoma taraflari uchun «xususiy qonun» bo'lsa ham u davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlangan yuridik hujjatdir. SHartnomaning yuridik kuchi taraflarni unda nazarda tutilgan shartlarni bajarishga undaydi va bu shartlar bajarilmagan takdirida, uni buzgan taraf uchun salbiy okibatlar vujudga kelishini nazarda tutadi. SHartnomani yuridik kuchi, sud orqali uning davlat majburlov kuchi bilan ta'minlanganligi barcha fuqarolar va yuridik shaxslarga shartnomalarga va shartnomaviy burchlarga nisbatan mas'uliyat tuyg'usini mustahkamlaydi.

YUqoridagilardan xulosa chiqarib shartnomalar quyidagi funksiyalarni bajaradi deyish mumkin:

- 1) ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish;
- 2) iqtisodiyotda va boshqa soxalarda turli sub'ektlarni bir-birlari bilan o'zaro bog'lash;
- 3) shartnoma taraflari manfaatlarini uyg'unlashtirish, umumiy, mushtarak manfaatlar vujudga keltirish;
- 4) shartnoma taraflari qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun asos bo'lib hisoblanuvchi yuridik hujjat.

SHartnoma har qanday ijtimoiy formatsiyada o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Albatta, notarial xo'jalik yuritish jarayonida, tovar ishlab chiqarish zaif bo'lgan sharoitlarda shartnomalar jamiyat hayotida to'laqonli ahamiyat kasb eta olmaydi. Rejaga asoslangan ma'muriy buyruqbozlik tizimida ham shartnoma iqtisodiyotni tashkil etishda hal kiluvchi o'rinni egallay olmaydi. Sababi oddiy: barcha korxonalar o'rtasidagi munosabatlar eng avvalo reja asosida, yuqoridan

tushirilgan direktivalar va raznaryadkalar, limitlar, fondlar bo'yicha tashkil etiladi. SHartnomalar bu o'rinda ikkilamchi ahamiyatga ega. Bozor va raqobat mavjud bo'lmagan sharoitlarda, bundan o'zgacha bo'lishi ham mumkin emas.

Biroq bozor munosabatlari sharoitida shartnomaning roli tubdan o'zgaradi. Ma'lumki, bozor tizimi bozor sub'ektlarining tengligiga, rakobatga, talab va taklif asosida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatishni tashkil etishga asoslanadi. Bunday holatda turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar, ya'ni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol munosabatlari faqat fuqarolik huquqiy shartnomalar orqaligina tashkil etilishi mumkin. Fuqarolik-huquqiy shartnoma iqtisodiy tashkiliy munosabatlarni huquqiy rasmiylashtiruvchi beqiyos yuridik vositaga aylanadi. Uning beqiyosligi shundaki, bozor sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tashkil etish va ular o'rtasidagi aloqalarni yuritish faqat shartnoma orqaligina amalga oshirilishi mumkin, shartnoma bunda yagona huquqiy tartibga soluvchi yuridik vosita bo'lib, uni hech narsa bilan almashtirishning aslo iloji yo'q. Faqat shartnomagina bozor tizimida taraflarning tengligini, manfaatlarini ta'minlashni, ixtiyoriylikni va huquqlarini himoya qilishni qat'iy kafolatlay oladi. Hech mubolagasiz aytish mumkinki, bozor munosabatlari o'z mohiyatiga ko'ra sof shartnomaviy munosabatlardir. Bozor munosabatlarning unchalik ko'p bo'lmagan qismigina shartnomaviy munosabatlar doirasiga kirmaydi xolos.

SHartnoma huquqi ham har qanday o'quv fani kabi o'zining tamoyillariga, ya'ni huquq normalari mazmuniga singdirilgan, mujassamlantirilgan asosiy qoidalariga ega. Odatda shartnomaviy munosabatlar tamoyillari tizimida shartnomalar erkinligi alohida o'rin egallaydi. SHartnomalar erkinligi aslida fuqarolik huquqinigina emas, balki umumhuquqiy tamoyil bo'lib hisoblanadi (yuqorida ko'rsatilganidek, shartnomalar xalqaro huquqda, mehnat huquqida, oila huquqida ham keng qo'llanishini e'tiborga olsak). Biroq, shunga qaramay shartnomalar erkinligi tamoyili birinchi galda fuqarolik huquqiy talqinda keng shuhrat qozongan. Agar hozirgi zamon sivilistikasini shakllantirishda muhim rol o'ynagan asosiy tamoyillarni ko'zdan kechirsak, hokimiyatlarni bo'linishi,

tenglik, inson huquqlarini hurmat qilish, demokratik boshqaruv va shu kabi umume'tirof etgan prinsiplar ichida ikkita fuqarolik huquqiy tamoyil - mulk daxlsizligi va shartnomalar erkinligini ko'ramiz. Agar shartnomalar erkinligi va mulk daxlsizligi tamoyillariga qat'iy amal qilinmaganda edi, sivilizatsiyaning hozirgi moddiy negizi vujudga kelmagan va erkin, rivojlangan bozor tizimi shakllanmagan bo'lur edi. SHartnomalar erkinligi tamoyiligina bozor ishtirokchilariga o'zlari xohlagan sherik bilan o'zaro manfaatli shartnomaviy munosabatlarga kirishishga imkon berdi.

Bugungi kunda shartnoma huquqida quyidagi tamoyillar mavjud deb hisoblash mumkin:

- shartnoma erkinligi;
- shartnomaviy sheriklar insofliligi;
- shartnoma shartlarini oqilonaligi va o'zaro manfaatlarni uyg'unlashtirish;
- shartnoma intizomiga qat'iy rioya qilish.

Ushbu tamoyillar FKda tegishli ravishda o'z ifodasini topgan, deb hisoblash mumkin. SHuni ham unutmaslik kerakki, Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonunda xo'jalik shartnomalarining tamoyillarini maxsus ravishda belgilab qo'yilgan. Ushbu tamoyillarni ham shartli ravishda yuqoridagi tamoyillar tizimiga kiritish mumkin:

- xo'jalik shartnomalarini tuzish erkinligi;
- taraflarning o'zaro manfaatdorligi;
- shartnoma intizomiga rioya qilish;
- taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi (qonunning 4-moddasi).

Albatta, ushbu tamoyillar tizimidagi muayyan takrorlashlarni hisobga olmaganda, mamlakatimiz fuqarolik qonunchiligida shartnomaviy munosabatlar tamoyillarining o'ziga xos yaxlit va uyg'un tizimi vujudga kelgan, deb hisoblash mumkin. Ushbu tamoyillar shartnomaviy munosabatlarga baho berish, ayniqsa nizolar vujudga kelganda, ularni hal etishda o'ziga xos rahbariy ko'rsatma, qonun mohiyatini ko'rsatuvchi qoida vazifasini o'taydi.

SHartnoma tuzish erkinligi tamoyilining mazmuni FKning 354-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Unga ko'ra, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Buning ma'nosi shundan iboratki, hech kim ularning shartnoma tuzishga majbur qila olmaydi. SHartnoma fuqarolar va yuridik shaxslarning o'z xohishiga ko'ra, o'z erki irodasi bilan tuziladi. Albatta, ularni shartnoma tuzishga undovchi sabablar (motiv) turlicha bo'lishi mumkin: o'z extiyojlarini qanoatlantirish, foyda olishga intshshsh, ta'sis hujjatlarida belgilab ko'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish va h.k. Ba'zan, boshka uchinchi shaxslar shartnoma tuzish haqida talab, taklif yoxud iltimos qilishlari mumkin. Biroq, har qanday holda ham shartnoma tuzish haqidagi qaror fuqaro yoki yuridik shaxs tomonidan mustaqil, o'z erki-irodasi asosida qabul kilinadi. SHartnoma tuzish vaqtida fuqaro (yuridik shaxs rahbari, vakili) fikri tiniq, ruhiy holati normal, o'zini o'zi idora qila oladigan, o'z harakatlarini okibatlarini ko'ra oladigan holda bo'lishi lozim. Agar sub'ektning ichki ruhiy holatida, ongida ro'y bergan buzilishlar, tashqi ta'sirlar tufayli shartnoma tuzishga majbur etilsa, unday shartnoma haqiqiy hisoblanmaydi. FKda yuqoridagi holatlar ta'sirida shartnoma tuzgan sub'ekt manfaatlarini himoya qiluvchi normalar belgilab qo'yilgan, chunonchi, o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi (121-modda), yanglishish ta'sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi (122-modda), aldash, zo'rlik, ko'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoxud og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi (123-modda). Ushbu normalar shartnomalar erkinligini real ta'minlashning o'ziga xos yuridik kafolati hisoblanadi, deb aytish mumkin.

FKda shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l ko'yilmaydi deb ko'rsatiladi va ayni vaqtda ushbu qoidadan istisnolar ham belgilab ko'yiladi. Boshqacha aytganda shartnoma tuzish burchi quyidagilarda nazarda tutilgan hollarda:

a) majburiy ravishda shartnoma tuzilishi lozim bo'lgan holatlar FKning 358-moddasi 3-qismida (tashkilot iste'molchiga tegishli tovarlarni berish, xizmatlar ko'rsatish, uning uchun tegishli ishlarni

bajarish imkoniyati bo'la turib shartnoma tuzishdan bosh tortishga haqli emas) 459-modda, 3-qismi (tovarlar etkazib berish to'g'risida davlat kontraktini tuzish majburiy bo'lgan hollar), 669-modda (qurilish ob'ektini sug'urtalash), 775-modda 3-5-qismlari (bank hisobvarag'i shartnomasi tuzish shart bo'lgan hollar) va h.k.larda nazarda tutilgan;

b) boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda (masalan, Notariat to'g'risidagi qonunda xususiy notarius tomonidan o'z faoliyatini boshlashdan oldin o'z javobgarligini sug'urtalash bo'yicha shartnoma tuzish majburiyati, Mas'uliyati cheklangan va ko'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risidagi qonunda ikki va undan ortiq shaxs tomonidan MCHJ yoki QMJ tashkil etilganda ta'sis shartnoma tuzish shartligi belgilab qo'yilgan. Bunday majburiy shartnoma tuzish bo'yicha normalar boshqa qator qonunlarda ham nazarda tutilgan);

v) sub'ekt tomonidan olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollarda (masalan, FKning 361-moddasi 1-qismiga ko'ra dastlabki shartnoma bo'yicha taraflar kelgusida asosiy shartnoma tuzish majburiyatini oladilar va u kelgusida majburiy shartnoma tuzishga asos bo'ladi. FKning 380-moddasi 10-qismiga ko'ra, kim oshdi savdosiga shartnoma tuzish huquqi qo'yilgan bo'lsa, u holda kim oshdi savdosi tashkilotchisi kim oshdi savdosi g'olibi bilan shartnoma tuzishga majbur sub'ekt bundan boshqa xolatlarda ham kelgusida majburiy ravishda shartnoma tuzish burchi nazarda tutilgan majburiyatni o'z ustiga olish mumkin).

YUkoridagi holatlarda majburiy shartnoma tuzish sud orqali amalga oshirilishi mumkin. Ayrim holatlarda tegishli taraf boshqa tarafga shartnoma tuzmaslik oqibatida etkazilgan zararlarni to'lagan holda shartnoma tuzishdan sud tomonidan ozod etilishga ham yo'l qo'yiladi.

Majburiy shartnoma tuzish, yuqoridagi holatlardan ko‘rinib turibdiki, umumiy qoidadan istisno hisoblanadi. Unga faqat davlat, jamiyatning, iste‘molchilarning alohida ahamiyatga ega bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish maqsadlaridagina yo‘l qo‘yiladi. Demak, shartnomani majburan tuzdirishda shartnoma tuzishga majbur qilinadigan tarafni kamsitish, uning manfaatlariga putur etkazish maqsadini ko‘zlamaydi. Boshqacha aytganda, majburan shartnoma tuzishdan shartnoma tuzuvchi tarafga moddiy yoxud ma‘naviy zarar etkazish maqsadi aslo ko‘zlanmaydi (hatto agarda majburan shartnoma tuzishda shartnoma tuzishga majbur qilinayotgan sub‘ekt moddiy zarar ko‘radigan bo‘lsa, u holda bunday zarar shartnomadan manfaatdor taraf tomonidan qoplanishi lozim).

Albatta, shuni ham e‘tirof etish lozimki, shartnoma tuzishda majburiylik faqat shartnoma tuzish faktiga nisbatan qo‘llanadi. SHartnoma shartlarini belgilashda bunday majburiylik qo‘llanmaydi, ya‘ni shartnoma shartlarini belgilashda shartnoma tuzishga majbur qilinayotgan shaxs bilan uning kontragentlari teng huquqli bo‘ladilar va o‘zaro rozilik (konsensus) asosida ish ko‘radilar. Agarda taraflar shartnoma shartlari bo‘yicha o‘zaro kelishuvga erisha olmasalar, u holda kelishmovchiliklar FKning 377-moddasida belgilangan tartibda sud tomonidan hal etiladi. Bunday tartib shartnoma shartlarini qonun talablariga muvofiq, insof, adolat va oqilonalik asosida belgilashni ta‘minlaydi.

Majburiy tartibda shartnoma tuzish bo‘yicha qonun talablari buzilsa, ataylabdan og‘ir shartlar asosida shartnoma tuzishga majbur etilsa, shuningdek, bunday shartnoma tuzish xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning bozor konyukturasida boshka sub‘ektlarga nisbatan og‘ir ahvolga solib ko‘ysa yoxud uning manfaatlariga putur etkazsa, u holda sudga o‘z huquqlarini himoya kilib murojaat qilishga haqli.

SHartnomalar erkinligining yana bir muxim qoidasi - bu taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomalarni ham tuzish mumkinligida mujassamlangan (FKning 354-moddasi 3-qismi). Rus olimi YU.Tixomirov shartnoma mazmunida qonun va taraflar erki-irodasini tadqiq etib qonunga,

ustuvorlik beradi va shartnomaning padari (otasi) qonun,¹ deb ko'rsatadi, M.Braginskiy va V.Vitryanskiy ushbu fikrni davom ettirib, taraflarning erki-irodasi, kelishuvi shartnomaning onasi, deb ko'rsatadilar². Albatta, juda ko'pchilik shartnomalar bo'yicha qonun hujjatlarida normalar mavjud. Birgina amaldagi FKda 40 ga yaqin turli shartnomalar to'g'risida normalar mavjud. Ushbu normalarda shartnomalar predmeti, muhim shartlari, shakli, taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnomaviy majburiyatlarni bajarish va ularni buzganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi qoidalar belgilab qo'yilgan. Birok ijtimoiy hayot, iqtisodiyot doimo rivojlanishda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti ham shartnomaviy munosabatlarning yangidan-yangi turlarini vujudga keltirmoqda. Masalan, hozirgi amaldagi FKdan tashqari, boshqa qonunlarda konsessiya, mahsulot taqsimotiga oid bitim kabi yangi shartnomalar nazarda tutildi. Elektron vositalar orqali shartnomalar tuzish, birjalarda shartnomalar tuzish bo'yicha yangidan-yangi normalar vujudga keldi. Lekin shunga qaramay, mamlakatimizda hozirda mavjud bo'lgan barcha fuqarolik qonun hujjatlari shartnomalarni hamma turlarini kamrab olgan deb bo'lmaydi. Masalan, notijorat hamkorlik, birgalikdagi faoliyat bo'yicha, distribyuterlik shartnomalari, ayrim turdagi litsenziya shartnomalari, tolling, konsignatsiya, logistika, fyuchers bitimlarining huquqiy asoslari mamlakatimiz qonunchiligida anchayin zaif yoxud deyarli ishlab chiqilmagan. Biroq mamlakatimizda bunday shartnomalar tuzilishi, ijro etilishiga hech qanday monelik yo'q. Mamlakatimiz qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomalar bo'yicha o'z huquqlarini himoya qilishni so'rab taraflar sudlarga murojaat qilishga haqlidirlar. Bunda vujudga keladigan nizolar umumiy tartibda hal etiladi. Ayni vaqtda shuni ham unutmaslik lozimki qonunda nazarda tutilmagan shartnomalarni tuzish huquqi mutlaqo chegarasiz emas, u muayyan doiraga ega. Bunday doira quyidagi mezonlar asosida belgilanadi:

- mamlakatimiz milliy huquq tizimida mustahkamlab qo'yilgan rahbariy tamoyillar;

¹ Ю.А.Тихомиров. Договоры и экономика. –М.: Экономика. 1993. –Б. 13.

² Брагинский М, Витрянский В. Договорное право. –М.: Статут. 1997. –Б. 15.

- umuminsoniy va milliy qadriyatlar, axloqiy asoslar.

Tuziladigan shartnoma yuqoridagi mezonlarga aslo zid bo'lmisligi lozim. Aks holda bunday shartnomalarni FKni 9-bobi normalari asosida haqiqiy emas deb topish, huquqqa xilof oqibatlar vujudga kelganda esa aybdorlarga nisbatan tegishli sanksiyalar qo'llash bo'yicha asoslar vujudga keladi.

Qonunda nazarda tutilmagan shartnomalar o'z mazmuniga ko'ra:

- ilgari hech qachon qo'llanmagan shartnoma sifatida;

- yoki boshqa davlatlarda o'zining huquqiy asoslariga ega bo'lgan, ularda qo'llanish amaliyotiga ega bo'lgan biroq mamlakatimizda ilgari qo'llanmagan shartnoma sifatida namoyon bo'lish mumkin. So'nggi holatda taraflar uchun ancha qulayliklar mavjud, chunki zarur xollarda ular boshqalar amaliyoti va tajribasidan foydalanishlari mumkin. SHuni ham e'tirof etish lozimki, boshqa mamlakatlar qonunchiligi zarar hollarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

SHartnomalar erkinligi tamoyilining yana bir qoidasi taraflar turli shartnomalarning elementlarini o'z ichiga oladigan shartnoma, ya'ni aralash shartnomalar ham tuzishga haqlidirlar. Masalan, muayyan xo'jalik yurituvchi sub'ekt boshqa bir xo'jalik yurituvchi sub'ektga yangi texnikani yaraxish, sinovdan o'tkazish va seriyali ravishda ishlab chiqarib, muayyan muddat davomida etkazib berish ham, ilmiy tadqiqot ishlarini o'tkazish ham, mahsulot etkazib berish shartnomasi shartlarini o'z ichiga oladi. Bunda taraflar uchun yagona shartnomani tuzish qulay va maqsadga muvofiqdir. Uz mohiyatiga ko'ra, har ikkala shartnoma bir-birlari bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lishi shart. Bir necha shartnomalar elementlarini o'z ichiga olgan shartnoma yaxlit, bir butunlikni tashkil etishi lozim.

Aralash shartnomalar bo'yicha nizolarni hal etishda sudlar uchun muayyan qiyinchiliklar vujudga kelishi mumkin. SHu sababli ham qonunda aralash shartnoma bo'yicha taraflarning munosabatlariga, agar taraflarning kelishuvidan yoki aralash shartnomaning mohiyatidan boshqacha tartib anglashilmasa, elementlari aralash shartnomada bo'lgan shartnomalar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi, deb qo'rsatma beradi (FKning 354-moddasi 4-qismi). Bunday

vaziyatda shuni ham unutmaslik lozimki, ya'ni nizo bo'yicha mavjud munosabatga nisbatan qaysi shartnomaga oid huquqiy munosabat mazmunini aniqlash orqali hal etiladi. Umuman olganda, aralash shartnomalar tuzish imkoniyati shartnoma taraflari uchun o'ziga xos qulaylik tug'diribgina qolmasdan, muayyan muamimolarni ham keltirib chiqarishni unutmaslik lozim. Biroq bunday hol aralash shartnomalarni qo'llashga aslo to'sqinlik qilmaydi.

SHartnomalar erkinligi tamoyili taraflar tomonidan shartnoma shartlarini belgilash jarayoniga ham to'la taalluqlidir. Umumiy qoida bo'yicha shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonun hujjatlarida ko'rsatib qo'yilgan hollar bundan mustasno (FKning 354-moddasi 5-qismi).

Har qanday taraf shartnomadan muayyan manfaat kutadi, shartnoma bunday manfaatni ro'yobga chiqarish, qanoatlantirish vositasidir. Demak, taraflar ushbu manfaatlariga erishishni ta'minlovchi harakatlar sodir etishni shartnoma shartlari orqali kelishib olmog'i lozim. SHartnoma shartlarini belgilashda har ikkala tomon teng huquqlarga ega. SHartnoma shartlari har ikkala taraf tomonidan birgalikda ishlab chiqilishi lozim. Agarda shartnoma loyihasi bir taraf tomonidan ishlab chiqilgan takdirda ham, ikkinchi taraf uni to'laligicha qabul qilish, rozi bo'lishi shart. SHartnoma shartlarini belgilashda taraflarning xohish-irodasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Albatta, shartnoma shartlarini ishlab chiqishda uchinchi shaxslar ham qatnashishi mumkin, biroq ular muayyan shartlar bo'yicha taklif, tavsiya berishlari mumkin xolos (masalan, ekspertlar, mutaxassislar, yuristlar shartnoma loyihasini ishlab chiqishda ishtirok etishlari odatdagi hol hisoblanadi, biroq ular faqat maslahat beradilar xolos. Hal qiluvchi shaxslar shartnoma taraflari hisoblanadilar. Ba'zi holatlarda qonun shartnoma shartlari qo'shilish shartnomani shakllantirilishiga yo'l qo'yadi (masalan, qo'shilish shartnomasi). Biroq bunday holda ushbu shartlarni qabul qilish yoxud qabul qilmaslik ikkinchi tarafning o'z xohishiga bog'liq.

SHuni ham unutmazlik lozimki, shartnoma shartlarini belgilashda taraflarning xohishidan, o'zaro kelishuvidan tashqari boshqa manba ham mavjud. Agar muayyan shartnoma sharti qonun hujjatlarida qat'iy asosda, imperativ norma bilan belgilab qo'yilgan bo'lsa, u holda taraflar xohishidan qat'i nazar, u shartnoma shartlarini tarkibiga kiradi. Imperativ normalarda mustahkamlab qo'yiladigan bunday shartlarda, odatda, davlat yoxud jamiyat manfaatlarini, muayyan faoliyatni amalga oshirishning optimal va maqbul yo'llari, samaradorlikni ta'minlovchi vositalar yoxud shartnomada zaif taraf huquqlarini himoya qilish usullari mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Imperativ normalar asosida belgilangan shartlar orqali qonun chiqaruvchi yoxud davlat boshqaruv idorasi shartnomaviy munosabatlarda muayyan maqsadga muvofiqlikni, adolat, insof va oqilonalikni ta'minlashga harakat qiladi. Masalan, o'tgan asrning 90 yillari o'rtalarida mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar debitor va kreditor qarzlari yuqori darajaga ko'tarilishi ro'y berdi. SHu sababli ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti mahsulot etkazib berish bo'yicha xo'jalik shartnomalari tuzishda eng kam 15 foiz haq oldindan to'lanishi haqida shartni shartnomada nazarda tutish majburiyiligi to'g'risida ko'rsatmani maxsus farmonda mustahkamlab qo'ydi. Umuman olganda, FKning majburiyatlarning turlariga bag'ishlangan 3-kichik bo'limida (29-54-boblar) qator shartnomalarning shartlari imperativ normalarda belgilab qo'yilgan. Taraflar o'z xohishlaricha imperativ normalarda belgilab qo'yilgan shartlarni boshqacha shartlar bilan almashtirsalar, bunday holda shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy hisoblanmaydi.

SHartnomaning sharti taraflar kelishuvida boshqa tartib belgilab qo'yilmaganligi tufayli qo'llaniladigan norma (dispozitiv norma)da nazarda tutilgan hollarda, taraflar o'zaro kelishib, uning qo'llanishini bekor qilishlari yoki unda nazarda tutilganidan boshqacha shartni belgilashlari mumkin. Bunday kelishuv bo'lmaganida, shartnomaning sharti dispozitiv norma bilan belgilanadi (FKning 354-moddasi 6-qismi). SHartnoma shartlari qonun hujjatlarining dispozitiv normalari bilan belgilanishi xam shartnomaviy munosabatlar

ishtirokchilariga g'oyat keng imkoniyatlar beradi. Ular bunday holatda imperativ norma asosidagi shartni qabul qilishlari xam yoxud o'z xoxishlariga ko'ra boshqacha shart belgilashlary ham mumkin. Umuman olganda, fuqarolik-huquqiy normalarning katta ko'pchiligi imperativ emas, balki dispozitiv normalar hisoblanadi. Bu esa fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga erkinlik va tashabbuskorlik imkoniyatlarini beradi. SHu sababli ham dispozitiv normalar orqali shartnoma shartlarini belgilash shartnomalar erkinligi tamoyilining namoyon bo'lish shakllaridan biri deb hisoblash mumkin.

SHartnoma shartlari taraflar yoki dispozitiv norma yoinki imperativ norma bilan belgilab qo'yilmagan taqdirda, tegishli shartnomalar taraflar o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan ish muomalasi odatlari bilan belgilanadi (ish muomalasi odatlari tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasida vujudga kelgan va keng qo'llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasiga aytiladi). Odatda, ish muomalasi odatlaridan nafaqat muayyan kasbiy faoliyatni samarali usullari, balki kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning oqilona, adolat, insofga asoslangan qoidalari ham o'z mujassamini topadi. SHu sababli ham shartnoma shartlarini ish muomalasi odatlari bilan belgilanishi muayyan tarafning huquqlarini kamsitmaydi, manfaatlariga putur etkazmaydi.

3-bob. SHartnomaga qo‘yiladigan talablarning o‘ziga xos jihatlari.

3.1.SHartnomaga qo‘yiladigan talablar tushunchasi.

SHartnoma taraflar uchun o‘ziga xos xususiy qonun sifatida taraflar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratiladi. Albatta, bunday munosabatlar kishilar o‘rtasida vujudga kelishi sababli ijtimoiy munosabat hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita bo‘lgan shartlari huquq normalariga aniqrog‘i, fuqarolik-huquqiy normalarga asoslangani sababli ham shartnomaviy munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Binobarin, shartnomaviy munosabatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, fuqarolik-huquqiy ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

SHartnomalarga qo‘yiladigan talablar, albatta uning haqiqiy sanalishi, muayyan taraflarga huquq va majburiyatlarni belgilashi, ma’lum bir o‘rihatlarni keltirib chikarishi bilan bog‘liq bo‘lib, unga nisbatan bitimlarning haqiqiy sanalishi shartlari bilan birga o‘ziga xos talablari ham bor.

I.B.Zokirovning ta’kidlashicha, bitimlarning haqiqiy sanalashi uchun quyidagi shartlarga javob berishi:

birinchidan, bitimlarning mazmuni qonunga va qonun asosida chiqarilgan aktlarga, umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo‘lishi;

ikkinchidan, bitimlarni tuzuvchi shaxslar muomala layoqatiga ega bo‘lishlari;

uchinchidan, bitimlar ko‘rinish uchungina tuzilmay, balki chindan ham yuridik oqibat tug‘dirish maqsadida tuzilgan bo‘lishi;

to‘rtinchidan, notarial guvohlantirishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan bitimlar haqiqiy sanalmasligi xavfi ostida qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirilishi kerak¹.

Lekin shartnomalar bitimlardan farqli ravishda, u faqatgina taraflarning harakati emas, kelishuvi natijasida yuzaga kelishi munosabati bilan haqiqiy sanalishi

¹ Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. –Т.: ТДЮИ. 2006. -Б.108.

uchun quyidagi shartlar muhim xisoblanadi.

1. SHartnomalarning mazmuni amaldagi Fuqarolik kodeksi, «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek xalqaro qonun hujjatlari talablariga mos holda tuzilishi kerak;

2. SHartnoma huquqiy xulq-atvor qoidalari va umuminsoniy qoidalarga muvofiq bo‘lishi;

Z. SHartnoma munosabatlariga kirishuvchi taraflar(sub’ektlar) shartnoma tuzish vakolatiga ega bo‘lishi kerak;

4. Qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirilgan bo‘lishi kerak;

5. SHartnoma tuzayotgan shaxs erki-irodasi ichki va tashqi tazyiqdan holi bo‘lishi kerak;

6. CHindan qam yuridik oqibat tug‘dirish maqsadida tuzilgan bo‘lishi kerak;

YUqoridagilarga qo‘shimcha ravishda ayrim hollarda xo‘jalik shartnomalarida yuridik hizmat sub’ektlarining imzosi bo‘lishi ham talab etiladi.

FKning 1-moddasida qonun xujjatlariga zid bo‘lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkinlik huquqi belgilangan. Lekin bu erkinlik qonun hujjatlarida belgilangan doiradagina amalga oshirilishi mumkin. Agar qonun hujjatlariga zid ravishda tuziladigan bo‘lsa, u holda bu shartnoma o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topiladi. Bu erda qonun hujjatlari deganda O‘zbekiston Respublikasi parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar, bitimlar va boshqa normativ hujjatlar (Masalan, 1980 yil 11 aprelda Venada tuzilgan 1996 yil 30 avgustda O‘zbekiston Respublikasi Parlamenti tomonidan ratifikatsiya kilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining tovarlarning xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to‘g‘risidagi Konvensiyasi), mamlakatimiz hududida amal qiluvchi qonun va qonun osti aktlari nazarda tutilmokda. Bundan tashqari, fuqarolik huquqining manbalari bo‘lgan boshqa normativ hujjatlar ham «qonun» atamasi tarkibiga kirib ketadi. Aynan tuzilayotgan shartnoma mazmuni qonun talab qilgan doirada qabul qilinishi lozim.

Agar taraflar kirishayotgan shartnomaviy munosabatlar mazmuni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan bo'lsa u holda qonun yoxud huquq analogiyasi qo'llaniladi yoki ish muomala odati normalari qo'llanilgan holda shartnoma tuzish talab etiladi, Masalan, tolling, konsignatsiya, notijorat hamkorlik shartnomalariga nisbatan analogiya qo'llanilmaydi.

SHartnomalarga qo'yiladigan talablardan biri u huquqiy xulq atvor va umuminsoniy qadriyatlarga mos xolda tuzilishidir. Ma'lumki, huquq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, rivojlantirib va qo'riqlab turuvchi vosita shuningdek, u jamiyatda kishilarning xulqi, yurish-turishlari, hayotiy faoliyatlarining mahsuli hamdir. Jamiyatda kishilarning xulqi turli xil shakllarda bo'lib, uning ifodalanishi, samaradorligi, motiv va maqsadi, oqibatlariga qarab turlarga ajratish mumkin. SHu bilan birga xulqning barcha ko'rinishlari ma'lum bir manfaatlarni belgilaydi. SHu sabab ham xulq-atvor, axloq huquqiy baholashning ob'ekti bo'lib yuzaga keladi. Huquq kishi xulqini turlicha baholaydi. Huquqshunoslikda huquq normalari bilan tartibga solinadigan huquqiy ta'sir doirasidagi xulq muhim ahamiyatga ega. SHu sabab ham huquqiy tartibga solishda, albatta, shu munosabatga kirishuvchi sub'ektning xulqi e'tiborga olinadi.

Huquqiy xulq-atvor huquq normalariga mos keladigan yuridik oqibat keltirib chiqaradigan ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo'lgan ongli huquqiy xulq bo'lib, u albatta, davlat tomonidan ijobiy bahoga sazovor bo'lishi zarur. Huquqiy xulqning mohiyatini yuridik majburiyatlarni bajarish, huquqqa amal qilish va bajarish tashkil etadi. Huquq nuqtai nazaridan huquqiy xulq huquqiy va unga zid bo'lishi mumkin. Amaldagi qonun hujjatlari va huquqiy amaliyot o'z-o'zidan huquqqa mos keladigan xulqning tarafdori bo'lib, huquqqa zid xulqqa tabiiyki salbiy munosabatda bo'ladi hamda uni ta'qib qiladi. N.Saburov huquqiy xulqni faol, odatdagi va sust huquqiy xulq-atvorga bo'ladi¹. Mazkur olimning fikridan kelib chiqadigan bo'lsak, shartnomaviy munosabatga kirishish istagida bo'lgan shaxslarning xulq atvori odatdagi xulq-atvor deb nomlanuvchi turiga mos keladi.

¹ Давлат ва ҳуқуқ назарияси. –Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 2000. -Б. 346.

Ushbu odatdagi huquqiy xulq-atvor kishilarning kundalik hayotidagi huquq normalariga mos keladigan xulqi bo'lib, bu xulq doirasida fuqaro shaxsning huquqiy majburiyatlarinigina bajaradigan, u yoki bu ko'rinishdagi yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshiradilar. Huquqiy xulq-atvor faqatgina jismoniy shaxslarga tegishli emas, umumiy olib qaraganimizda huquqiy xulq atvor barcha sub'ektlarga ham daxldor.

Shaxs shartnomaviy munosabatga kirishgan paytda, albatta, uning huquqiy xulq-atvori ham e'tiborga olinadi. Agar shartnoma tuzuvchi yuridik oqibat keltirib chikaradigan ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo'lgan shartnomalar tuzmasa, u o'z-o'zidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. SHu sabab ham ushbu kriteriy shartnomaga ko'yiladigan talab sifatida maydonga chiqqan.

Shartnoma o'z-o'zidan umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishi kerak. Jamiyat, davlatning maqsadlari negizini inson, uning hayotini yaxshilashga qaratilgan kirishuvchi munosabatlarni huquqiy negizini ta'minlash va davlat tomonidan kafolatlash tashkil etadi. SHu sabab jamiyat va davlat shaxsning manfaatlarini hamisha e'tiborga oladi, uni himoyalaydi. Aynan mazkur himoya funksiyasi yuzaga kelayotgan muosabatlarni umuminsoniy qadriyatlarga mos kelishini nazorat qilishni talab etadi. Umuminsoniy qadriyatlar mahalliy va xalqaro normalarga mos keladi, undan kelib chiqib belgilanadi. SHu sabab ham shartnoma tuzuvchi yo shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi shaxslar avvalo insoniy qadriyatlarga mos keladigan shartlarni o'z shartnomalariga singdirishlari shart.

3.2.SHartnoma tuzuvchilarning shartnoma tuzish layoqati tushunchasi.

Shartnoma tuzuvchilar shartnoma tuzish layoqatiga ega bo'lishlari lozim. Shartnoma tuzish layoqati turli sub'ektlarda turlicha kuzatiladi. Masalan, fuqarolarda huquq va muomala layoqati bilan bog'liq bo'lsa, yuridik shaxslarda maxsus va universal huquq layoqati bilan bog'liq.

Shartnoma tuzish layoqati uning oqibatini anglash layoqatidan iborat. Bu layoqatga fuqarolar 18 yoshdan, yuridik shaxslar esa sub'ekt sifatida davlat tamonidan e'tirof etilgandan so'nggina ega bo'ladilar.

Fuqarolarning shartnoma tuzish layoqati o'rganilganda, ularning muomala layoqatiga egalik holatiga e'tibor beriladi. Fuqarolik qonunchiligimiz bo'yicha fuqaro 18 yoshga to'lsa va aqli raso bo'lsa u to'lik muomala layoqatiga ega bo'ladi. 18 yoshga to'lmagan fuqaro voyaga etmagan deb topiladi va u to'liq muomalaga layoqatsiz yoki qisman muomalaga layoqatli deb topiladi. Voyaga etmagan fuqaro bilan voyaga etgan fuqaro o'rtasidagi farq biologik-jismoniy, yuridik, psixologik mezonlar bilan belgilanadi. Muomala layoqatiga ega bo'lish, bu turli xil yuridik harakatlarni shaxsan amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lish: shartnomalar tuzish, ishonchnomalar berish shuningdek, keltirilgan mulkiy zararlar, shartnoma va boshka majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lish demakdir.

S.Vagatsumaning fikricha, muomala layoqati bu - mustaqil va to'la ravishda bitimlarni tuzish layoqatidir. Ushbu holatdan kelib chiqadigan bo'lsak, shartnoma tuzish layoqati bu muomala layoqatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Fuqarolarning muomala layoqatining darajasiga qarab, qonun hujjatlari fuqarolarga turlicha shartnoma layoqatini yuklaydi.

Muomala layoqati deganda, fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari olish va o'zi uchun fuqarolik majburiyatlari tug'dirish layoqati tushuniladi. Muomala layoqati fuqaroning faqatgina huquqiy harakatlari bilan bitimlar tuzish layoqatini bildirib qolmasdan, balki uning huquqqa xilof harakatlarini, ya'ni layoqatni ham bildiradi.

Rossiya huquqshunos olimlarining fikricha, muomala layoqati – shaxsning o'z xatti-harakatlari bilan o'ziga fuqarolik huquqlarini vujudga keltirishi va amalga oshira olishi, o'zining harakatlari bilan majburiyatlarni vujudga keltirish va shu asosda fuqarolik jamiyatining to'laqonli a'zosi bo'lishidir¹.

Basharti, fuqaro o'zining g'ayriqonuniy harakatlari, ya'ni layoqati bilan amaldagi huquqiy tartibni buzsa, buning oqibatida unga nisbatan bir qator fuqarolik huquq va majburiyatlari vujudga keladi. Masalan, qonunda bu to'g'rida mana bunday deyiladi:

— g'ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki

¹ www. 5 ballow. ru. Правоспособность и дееспособность гражданина. Обзор лекции. –М.

mol-mulkiga etkazilgan zarar, shuningdek yuridik shaxsga etkazilgan zarar zararni etkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim (FKning 985-moddasi).

Muomala layoqati xuddi huquq layoqati, kabi umumiy xarakterga ega bo'lib, aniq sub'ektiv fuqarolik huquq va majburiyatlaridan kelib chiqadi. Ammo shu bilan bir qatorda muomala layoqati ham huquq layoqati kabi o'ziga xos huquqdir. Ba'zan yuridik adabiyotlarda huquq layoqati va muomala layoqatini umumiy bir huquqiy sub'ektiv tushunchaga birlashtiradilar. Muomala layoqati huquq layoqatining bo'lishini e'tirof etadi va to'liq holda voyaga etish bilan vujudga keladi. Voyaga etish, odatda, 18 yosh hisoblanadi. Bu yoshga etish bilan kishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, jumladan, mulkiy munosabatlarda to'la qatnashuvchigina bo'lib qolmay, siyosiy huquqlar bilan birga, boshqa fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini ham oladi¹.

Demak, fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari olish va o'ziga fuqarolik burchlari tug'dirish layoqati (fuqarolik muomala layoqati) uning voyaga etishi, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lishi bilan to'la hajmda vujudga keladi (FKning 22-moddasi).

Shuningdek, quyidagi hollarda ham fuqarolar to'la muomala layoqatiga ega bo'ladilar:

— voyaga etgunga qadar qonuniy asosda nikohdan o'tgan fuqaro nikohdan o'tgan vaqtdan e'tiboran;

— nikoh tuzish natijasida ega bo'lingan muomala layoqati o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib, nikoh bekor qilingan taqdirda ham;

— emansipatsiya holati bo'yicha, ya'ni o'n olti yoshga to'lgan voyaga etmagan shaxs mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan bo'lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan bo'lsa.

Odatda, fuqarolik voyaga etish konstitutsiyaviy huquq bo'yicha siyosiy voyaga etish bilan mos keladi. Bizda fuqarolar o'n sakkiz yoshida to'liq muomala layoqatiga ega bo'ladilar.

¹ Зокиров И. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. 1-қисм. -Т.: ТДЮИ нашриёти. 2006. –Б. 85.

Fuqaroning muomala layoqati sohibi bo'lishi, uning oqilona va ma'qul ravishda harakat qilishining samarasidir. SHubhasiz, fuqaro muomala layoqatga ega bo'lar ekan, u o'zining barcha harakatlaridan kelib chiqadigan oqibatlarni baholay bilishi va ular uchun javob beradigan bo'lishi lozim. Mana shuning uchun ham qonun muomala layoqatining vujudga kelishini ma'lum yoshning to'lishi bilan uzviy ravishda bog'laydi.

Binobarin, fuqaroning muomala layoqatiga ega bo'lishi, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida mustaqil ravishda ishtirok etishi uchun aqliy va jismoniy jihatdan mukammal etishganini bildiradi. Endi u bemalol mustaqil holda turli yuridik harakatlarni amalga oshirishi va o'zining noma'qul harakatlari uchun javob bera olishi mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, fuqaroning mustaqil ravishda bitimlar tuza olishi, majburiyatlar qabul qilishi va o'zining nomunosib harakatlari tufayli keltirgan zarari uchun jazob bera olishi uning muomala layoqati mazmunini tashkil etadi.

Fuqaroda to'liq muomala layoqati, u ruhiy kasallikka duchor bo'lmagan bo'lsa, voyaga etishi bilan vujudga keladi. SHuning uchun ham Respublikamiz qonunlari hammavaqt to'la muomala layoqatini boshqa xil muomala layoqatidan farqlaydi¹.

FKning 29-moddasiga asosan o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga etmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) uchun bitimlarni, ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzishi mumkin.

Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar:

- 1) mayda maishiy bitimlar;
- 2) tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;
- 3) qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan

¹ Раҳмонкулов Х. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг биринчи қисмига умумий тавсиф ва шарҳлар. 1-жилд. -Т.: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси" нашриёт уйи. 1997. –Б. 124.

mablag'larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Kichik yoshdagi bolaning bitimlari bo'yicha, shu jumladan o'zi mustaqil tuzgan bitimlar bo'yicha uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiyi, agar ular majburiyatning buzilishida o'zlarining ayblari yo'qligini isbotlay olmasalar, mulkiy javobgar bo'ladilar. Ushbu shaxslar qonunga muvofiq, kichik yoshdagi bolalar etkazgan zarar uchun ham javobgar bo'ladilar.

FKning 27-moddasiga asosan o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlar, ushbu moddaning ikkinchi qismida sanab o'tilganlardan tashkari, bitimlarni o'z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yozma roziligi bilan tuzadilar. Bunday voyaga etmagai shaxs tomonidan tuzilgan bitim keyinchalik shaxsning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysi yozma ravishda ma'qullaganidan so'ng, u ham haqiqiy xisoblanadi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarining rozilgisiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

1) o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;

2) fan, adabiyot yoki san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;

3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf etish;

4) mayda maishiy bitimlarni hamda FKning 29-moddasida nazarda tutilgan boshqa bitimlarni tuzish.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga etmaganlar o'zlari tuzgan bitimlar bo'yicha mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo'ladilar. Bunday voyaga etmaganlar o'zlari etkazgan zarar uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish xamda ularni

bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga etgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach, aqli raso bo'lganda, to'la xajmda vujudga keladi va har qanday qonunda taqiqlanmagan shartnomalarni tuzish huquqiga ega bo'ladi.

Yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati universal va maxsus layoqatdan iborat¹. Nodavlat tijoratchi yuridik shaxslarning huquq layoqati notijorat yuridik shaxslarning huquq layoqatidan kengroq bo'lib, umumiy (universal huquq layoqati) harakterga ega va ular, garchi ta'sis hujjatlarida belgilanmagan bo'lsa-da, qonunda taqiqlanmagan har qanday fuqarolik munosabatiga kirishishlari mumkin. Notijorat yuridik shaxslarning huquq layoqati o'z nizomlari doirasida cheklanganligi bois, maxsus huquq layoqati mos keladi. Nodavlat tijoratchi yuridik shaxslar (xususiy korxonalar, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari) universal huquq layoqatiga ega bo'lib, bu umumiylik sarmoyalarni tez va uzluksiz muomalaga kirishini ta'minlaydi hamda sarmoyadorni qonuniy harakat doirasida daromad olishga yo'naltirishni kafolatlaydi.

Fuqarolik huquqining boshqa sub'ektlari - yuridik shaxslar va fuqarolar kabi davlat, uning tuzilmalari va ma'muriy-hududiy tuzilmalari ham fuqarolik huquq va muomala layoqatiga ega bo'ladi², Davlat ham fuqarolik huquqining boshqa sub'ektlari kabi bitim-shartnomalar tuzish va majburiyatlarda ishtirok etish hamda boshqa huquqlar egasi bo'lishi mumkin. Lekin, tom ma'noda davlatning huquq layoqati turli xildagi yuridik shaxslar va fuqarolarning huquq layoqati bilan bir xil bo'lishi mumkin emas. Ba'zi holatlarda davlatning huquq layoqati fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq layoqatidan kengroq bo'lsa, ba'zi holatlarda davlatning huquq va burchlari cheklanadi. Ya'ni, fuqarolar huquq layoqatining mazmunini tashkil etuvchi huquqlar jumlasiga shunday huquqlar kiritilganki, bunday huquqdar davlatda mavjud bo'lmaydi. Masalan, fuqarolar chakana oldi-sotdi shartnomasida xaridor sifatida ishtirok etishi mumkin, davlatda esa, bunday huquqlar mavjud emas.

Biroq, davlatda shunday imkoniyatlar (huquqlar) mavjudki, bu huquqlar fuqarolik huquqining boshqa sub'ektlarida uchramaydi. Garchi fuqarolik huquqining boshqa sub'ektlari ham ayrim munosabatlarda (masalan, alohida

¹ Гражданское право. Учебник. Под. ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. Т.1. –М.: Проспект. 2003. –С. 152.

² Субъекты гражданского права. Под. ред. С.Н.Братуса. –М.: Юрлит. 1984.-Б. 270.

turdagi tovarlarning eksporti yoki importiga (paxta, oltin) davlat monopoliyasi oʻrnatilishi (Oʻzbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat toʻgʻrisidagi qonunining 11-moddasi) ishtirok etishlari mumkin boʻlsa-da, ularning toʻgʻridan-toʻgʻri ishtirok etishlari taqiqlanadi. Davlatning shartnoma munosabatlarida oʻz organlari orqali ishtirok etadi. Lekin faqatgina yuridik va jismoniy shaxslar tuzishi mumkin boʻlgan shartnoma munosabatlarida davlat ishtirok eta olmaydi. Masalan, maishiy pudrat shartnomasida buyurtmachi, prokat shartnomasida ijarachi boʻlishi mumkin emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan boʻlsak, barcha fuqarolik huquq subʼektlari oʻz vakolatlari doirasidagina shartnoma tuzishlari mumkin. Aks holda ular tuzgan shartnomalar haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

SHartnomalar qonun talab qilgan shaklda rasmiylashtirilgan boʻlishi kerak. Maʼlumki, bitimlar ogʻzaki yoki yozma shaklda boʻlishi lozim. YOzma shaklning oddiy yozma, notarial tasdiqlanadigan va davlat roʻyxatidan oʻtkazilishi talab etadigan shakllari mavjud, Aynan ushbu rasmiylashtirish shartlariga rioya etilish ushbu holatda talab etilmoqda.

FKning 109-moddasiga asosan bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi, biroq nizo chiqqan taqdirda taraflarni bitimning tuzilganligini, mazmunini yoki bajarilganligini guvohlarning koʻrsatuvlari bilan tasdiqlash huquqidan mahrum qiladi. Taraflar bitimning tuzilganligini, mazmuni yoki bajarilganligini yozma yoki boshqa dalillar bilan tasdiqlashga haqlidirlar. Qonunda yoki taraflarning kelishuvida toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatilgan hollarda bitimning oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi.

SHartnomani notarial tasdiqlash FKning 107-moddasi talablariga mos keladigan hujjatda notarius yoki bunday notarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega boʻlgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan tasdiqlovchi ustxat yozib koʻyish yoʻli bilan amalga oshiriladi. Qonunda koʻrsatilgan hollarda va taraflardan birining talabi boʻyicha shartnomalarni notarial tasdiqlash shart:

Yer uchastkalari va boshqa koʻchmas mol-mulk bilan bogʻliq shartnomalar

(boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara va boshqalar) davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. Ko'chmas mol-mulk xususida tuzilgan shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish va tegishli reestrlarni yuritish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Qonun hujjatlarida muayyan turdagi ko'char mol-mulk xususida tuziladigan shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish belgilab qo'yilishi mumkin.

Shartnomaning notarial shakliga yoki uni davlat ro'yxatidan o'tkazish talabiga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday shartnoma o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi. Agar taraflardan biri notarial tasdiqlash talab qilinadigan shartnomani to'la yoki qisman bajargan bo'lsa, ikkinchi taraf esa - shartnomani notarial rasmiylashtirishdan bosh tortsa, sud uni bajargan tarafning talabi bo'yicha uni haqiqiy deb hisoblashga haqlidir. Bu holda shartnomani keyinchalik notarial rasmiylashtirish talab qilinmaydi.

Agar davlat ro'yxatidan o'tkazish talab qilinadigan shartnoma kerakli shaklda tuzilgan bo'lib, ammo taraflardan biri uni ro'yxatdan o'tkazishdan bosh tortsa, sud boshqa tarafning talabi bilan shartnomani ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida qaror chiqarishga haqli. Bunday holda shartnoma sud qaroriga muvofiq ro'yxatdan o'tkaziladi.

Shartnoma tuzayotgan shaxs erki-irodasi ichki va tashqi tazyiqdan holi bo'lishi kerak. Ichki va tashqi tazyiqdan holilik o'z ichiga o'z xatti-harakatini ongli ravishda tushunishi va tashqi olam (shaxslar, tabiiy ofatlar va boshqalar) ta'siridan holilikni oladi. Ichki tazyiq shartnoma tuzuvchining ichki olamida kuzatiladi.

Ichki tazyiq shartnoma tuzish layoqati bilan bog'liq (o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxs tomonidan, o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga etmagan shaxs tomonidan, muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan, muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan, o'z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaro tomonidan, yanglishish ta'sirida tuzilgan shartnomalarga «ichki olam» ta'sir etadi.

Tashqi tazyiq ta'sirida quyidagi shartnomalar tuzilishi mumkin: aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan, qalbaki va ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan shartnomalar.

Shuningdek, xo'jalik shartnomalarini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yuridik xizmati (yoki advokati) ning imzosisiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

«Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonunning 20-moddasiga asosan, xo'jalik shartnomasi sub'ektlariga yuridik xizmat ko'rsatish ularning yuridik xizmatlari yoki ana shu maqsadda shartnoma asosida jalb etilgan advokatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yuridik xizmati:

- xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini, shuningdek talabnoma bildirish va uni ko'rib chiqish tartibiga rioya etilishini nazorat kiladi;

- shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan da'vo ishlarini olib boradi;

- xo'jalik shartnomalari bajarilishi ustidan o'zaro tekshiruvlar o'tkazilishini nazorat qiladi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariga imzolah uchun taqdim etilayotgan xo'jalik shartnomalari loyihalarining va ular bilan bog'liq huquqiy tusdagi boshqa hujjatlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshiradi;

- tayyorlangan xo'jalik shartnomasi va u bilan bog'lik huquqiy tusdagi boshqa hujjat loyihasi qonun hujjatlari talablariga mos emasligi aniqlangan taqdirda, o'z e'tirozini asoslagan holda uni qo'shimcha ravishda ishlab chiqish uchun qaytaradi;

- shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi.

Xo'jalik shartnomalari ularni imzolahga tayyorlash jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko'rilishi kerak. SHartnomalarni

ularning imzolarisiz tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi xo‘jalik shartnomalari xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar yuridik xizmatining yoki jalb etilgan advokatlarning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Xulosada, qoida tariqasida quyidagilar ko‘rsatiladi:

-xo‘jalik shartnomasida ko‘rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;

-xo‘jalik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi;

-taraflarning javobgarligi me‘yori va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi.

Yuqoridagi shartnomalarga qo‘yilgan talablar uning haqiqiylikini belgilab beradi.

Bizga ma‘lumki, ko‘plab shartnomalar bir-biriga o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga, ularni ajratish imkonini beradigan muayyan o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Turli xil shartnomalarni to‘g‘ri tanlash va fuqarolik muomalasi ishtirokchilari faoliyatida, vaziyatga qarab, mos ravishda qo‘llash uchun ularni turlarga bo‘lish qo‘llaniladi. Chunki, shartnomalarni turlarga bo‘lish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Masalan, tadbirkorlik faoliyati sub’ekti biron ashyodan foydalanishga ehtiyoj sezganida, o‘zining mulkiy holatidan kelib chiqib, ssuda shartnomasini tuzishi mumkin.

Har qanday tasniflash uchun asosiy muammo bu turga ajratish uchun mezon hisoblanadigan asosni topishdir. Avvalo mazkur mezonning o‘zi mavjud bo‘lishi va uning yordamida to‘la hajmda muayyan tasniflashni amalga oshirish imkoniyati bo‘lishi lozim.

Yuridik adabiyotlarda shartnomalarni turlarga ajratish uchun turli xil mezonlarni qo‘llashga harakat qilingan. Masalan, M.V.Gordon - yagona «natija» mezoni asosida barcha ma‘lum bo‘lgan shartnomalarni bir qatorga qo‘yishni taklif etgan.

Natijada esa bir turning ichiga turli xil shartnomalarni joylashtirgan. Masalan, oldi-sotdi va xadya, mulk ijarasi hamda mulkdan tekin foydalanish (ssuda) va h.k.

Bir tartibli yo‘l bilan shartnomalarni tasniflashga bo‘lgan urinish omadsizlik bilan tugagan, SHu sababli O.A.Krasavchikov bu xolatni hisobga olgan holda yagona mezon asosida tasniflashni va‘da bergan holda birinchi bosqichdayoq o‘z va‘dasini bajarmaydi. O.S.Krasavchikov taklif etgan tasniflash asosi «fuqarolik huquqiy natijani yo‘naltirilganligi» bo‘lishi lozim edi. Mazkur xususiyatni hisobga olgan holda majburiyatlarni to‘rt guruhga bo‘ladi. YA’ni: 1) mulkni topshirish; 2) ishlarni bajarish; 3) xizmatlarni bajarish va 4) pulni topshirishga karatilgan majburiyatlar. Mazkur tasniflashda shu holat ko‘zga tashlanadi, ya’ni to‘rtinchi guruhdagi pulni topshirish majburiyati o‘zining natijasining alohida yo‘naltirilganligi bilan emas, o‘zicha mustaqil xisoblanmagan shartnomaning alohida predmeti bilan ajralib turadi. Birinchi guruhda asosiy o‘rinni egallagan «mulk», to‘rtinchi guruhni ifodalagan «pulni» ham qamrab oladi.

Muayyan vaqt davomida o‘zida iqtisodiy hamda yuridik mezonlarni jamlagan tasniflash asosidan foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi, degap g‘oya keng tarqalgan edi. Biroq amalda «jamlangan mezon» oddiy mezonlar jamlanmasiga aylanib qoldi. Natijada esa bo‘lishning yagona asosi bir necha bora almashtiriladi. Bu hakda «jamlangan mezon»dan foydalangan holda erishilgan natija orqali hukm chiqarish mumkin bo‘ladi. Mazkur holatda gap bir necha shartnoma (majburiyat)ni birlashtirgan 9 ta xususiyat bo‘yicha shakllantirilgan guruh haqida ketmoqda. Unga: 1) mulkni haq evaziga begonalashtirishga; 2) mulkni haq evaziga foydalanishga topshirish; 3) mulkni tekinga foydalanishga yoki mulk qilib topshirish; 4) ishlarni bajarish; 5) xizmatlar ko‘rsatish; 6) tashish bilan bog‘liq; 7) kredit va hisob-kitobga doir; 8) sherikchilik faoliyati bilan bog‘liq; 9) sug‘urtaga qaratilgan majburiyat (shartnoma) kirgan¹.

¹ Муаллифлар жамоаси. Шартнома ҳуқуқи. –Т.: ТДЮИ. 2006. –Б. 133-134.

V.Vitryanskiy bunday guruhlashda ko'proq sharnomalarni tasniflash emas, balki inventarizatsiyalash (sanash) xususiyati ko'zga tashlanadi, shu sababli ko'rsatilgan guruhlash o'zining aniq ifodalangan ichki chegarasiga ega emas¹, deb hisoblaydi. Ayni shu nuqtai nazardan E.A.Suxanov sanab o'tilgan shartnoma turlaridan tashqari yana uchta shartnoma turini ko'rsatib o'tadi². SHu sababli shartnomani ko'p boskichli tasniflashdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir boskichda o'zining yagona mezonini saklab qolgan ko'p bosqichli tasniflash E.A.Suxanov tomonidan taklif etiladi. Bunday muayyan guruhga birlashtirilgan shartnomalar har bosqichda o'zidan oldingi shartnoma xususiyatini ifodalaydi.

Hozirgi paytda ta'sis shartnomalariga doir tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda ta'sis shartnomasishng o'ziga xos xususiyatlari, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari, javobgarligi masalasi tadqiq etilgan³.

Ta'sis shartnomasining asosiy xususiyati shundaki, uning imzolanishi yuridik shaxs tuzilishiga olib keladi. Uning maqsadi muayyan tuzilmani tashkil etish va ta'sischi'larni o'z mol-mulkini topshirish, shuningdek ta'sischi'larni yuridik shaxs tashkil etish faoliyatida ishtirok etish tartibini belgilash hisoblanadi. Ta'sis shartnomasi mazmuni yagona ta'sis hujjati hisoblangan yuridik shaxsda nisbatan keng bo'ladi (masalan, to'lik shirkatda).

H.Rahmonqulovning fikricha, amaldagi FKda turli xil mulk, ayniqsa xususiy mulk shakliga asoslangan yangi jamiyat qurilmasi va bozor munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari ifodasini topmaganligini ta'kidlaydi. Jumladan: huquqiy tartibga solish predmetiga tashkiliy-huquqiy masalalar kiritilmagan, masalan, yuridik shaxs ustavini tuzish va tasdiqlash; xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari ta'sis hujjatlarini tuzish va ro'yxatdan o'tkazish; birgalikda faoliyat yuritish to'g'risidagi shartnomalarni tuzish; uzoq muddatli aloqa o'rnatishga doir dastlabki shartnomalarni tuzish va h.k. larni ko'rsatib o'tadi⁴.

¹ Брагинский М, Витрянский В. Договорное право. –М.: Статут. 1997. –Б. 399.

² Суханов Е.А. Гражданское право. Т.2. –М.: Бек. 1993. –Б. 46.

³ Топилдиев В. Юридик шахслар таъсис хужжатларининг фуқаролик ҳуқуқий муаммолари. Ю.ф.н., дисс. Автореферат. –Т.: 2005. –Б. 45.

⁴ Раҳмонқулов Ҳ.Р. Законодательные источники гражданского права РУз и задачи по их

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, shartnomalarni turlash mezonlarini topishda shartnomalarni o'ziga xos xususiyatini ko'rsata oladigan va ularga ehtiyoj sezilganda qulayligi, afzalligi bo'yicha qo'llash imkoniyati mavjud bo'lishiga, shuningdek shartnoma o'rtasidagi umumiy, uzviy aloqalar mavjudligini ham e'tibordan chiqarmaslik zarur.

Xulosa

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida bosib o'tilgan yo'limiz va jamiyatimiz hayotida yuz bergan chuqur o'zgarishlar isbotlashga olinadigan bo'lsa, bugungi kunda iqtisodiyot oldida turgan yo'nalish, maqsad va vazifalar ham tubdan o'zgardi, eng asosiylari unda yuz berayotgan jarayonlar mazmuni sifat jihatdan o'zgardi¹.

Respublikamizda islohatlar izchillik bilan, aniq maqsadni ko'zlab amalga oshirilmoqda. Erkin tadbirkorlikni rag'batlantirishning, tadbirkorliklarning huquqlarini kafolatlashga qaratilgan ko'plab qonunlar qabul qilindi va ular amalda qo'llanilmoqda.

Mamlakatimiz rahbari SH.M.Mirziyoev: «Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgari lab borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi - aholi uchun munosib xayot darajasi va sifatini ta'minlashdir.

SHunday davr keldi. Ana shu talabni, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakat strategiyasi loyixasini keng muxokama kilish davomida kelib tushgan takliflarni inobatga olgan xolda. 2017 yil uchun mo'ljallangan iqtisodiy va ijtimoiy dasturning o'n bitta eng muxim ustuvor vazifasini belgilashni taklif etaman.»- deb ta'kidladi.²

Jahonning ko'plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy inqiroz ko'lami kengayotganiga qaramay, O'zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaramligi yo'qligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta'siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi.

¹ Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. -Т.: Ўзбекистон . 9 Т. 2001. -Б. 148.

² Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. 2017 йил 14 январь. - Тошкент “Ўзбекистон”, 2017.104 б.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoev: “Biz avvalo iqtisodiyotni isloh qilish va erkinlashtirish borasidagi ishlarimizni yanada chuqurlashtirish, uning soha va tarmoqlarini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish bo‘yicha boshlangan ishlarni jadallashtirishimiz kerak.

Tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatdoshlik darajasini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish masalalari doimiy e‘tiborimiz markazida bo‘lishi lozim. Buning uchun xorijiy samoyalar va ilgor texnologiyalarni hamda axborot-kommunikatsiya tizimlarini barcha sohalarga yanada faol jalb etishimiz zarur bo‘ladi.

Aynan shu asosda 2030 yilgacha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini 2 barobardan ziyod ko‘paytirishga erishishimiz darkor. Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksı va uning lokomotivi, ya‘ni harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e‘tibor qaratiladi.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doyr kompleks masalalarni hal etish - hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Bizning yana bir muhim vazifamiz - kichik biznes va tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, mamlakatimiz iqtisodiy qudratini, yurtimizda tinchlik va barqarorlik, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashdan, bu soha ulushini yanada oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat. Nega deganda, tadbirkor nafaqat o‘zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi.

Men takror bo‘lsa ham, aytishdan hech qachon charchamayman, ya’ni
«Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi».

SHuning uchun bundan keyin tadbirkorlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qilish - davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga to‘sqinlik qilish, deb baholanadi. Prinsipial jihatdan g‘oyat muhim bo‘lgan bu pozitsiyamizni yana bir bor alohida ta’kidlab o‘tishni muhim va zarur deb hisoblayman.”¹ - deb ta’kidladi.

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy vositalar ichida shartnomalar alohida o‘rin egallaydi.

SHartnomalar bir necha ming yillar davomida insoniyat tomonidan turli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o‘ziga xos moslashuvchan yuridik vositasi sifatida qo‘llanib kelinmoqda. Bunday yuridik vositalardan boshqa biri esa qonun hisoblanadi. Albatta, shartnoma qonun doirasida ishlarning xarakterini tartibga soladi, ularning imkoniyatlari doirasini belgilab beradi, xatti-harakatlarini yo‘naltirib turadi. SHuningdek, shartnoma talablari buzilgan taqdirda vujudga keladigan oqibatlarini ham belgilab beradi.

Yuqorida men fuqarolik huquqida shartnomaga qo‘yiladigan talablarning mohiyatiga oid masalalarni o‘rganib chiqdim. Bitiruv malaka ishi jarayoni quyidagicha xulosalar, taklif va tavsiyalarni vujudga kelishiga asos bo‘lib xizmat qildi:

- yuqorida men taniqli huquqshunos olimlarning shartnomaga bergan ta’riflarini o‘rganib chiqdik. Ular shartnomaga turlicha ta’rif berib utganlar. Men ularning bergan tushunchalarini o‘rgangan holda O‘zbekiston Respublikasi FKning 353-moddasida ko‘rsatilgan shartnomaning tushunchasini maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Bu moddaga ko‘ra, «ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuviga shartnoma deyiladi». SHartnomani ushbu tushunchasini tahlil etadigan bo‘lsak, u holda quyidagi holatlar yaqqol namoyon bo‘ladi:

birinchidan, shartnoma taraflari ikki yoki undan ortiq bo‘lishi shart, demak

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатининг биргаликда барпо этамиз, Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг хўшма мажлисидаги нутқи. Ш.Ш.Мирзиёев –Тошкент. "Ўзбекистон" НМИУ.2016. 56 б. Б.16-17

yakka sub'ekt o'z-o'zi bilan shartnoma tuza olmaydi;

ikkinchidan, shartnoma fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoxud bekor qilish uchun asos hisoblanadi;

- Intellektual mulk ob'ektlariga nisbatan huquqlar boshqa shaxslarga o'tkazilganda, shartnoma Davlat Patent idorasidan ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'ladi. SHuningdek, litsenziya shartnomasi yozma ravishda tuzilishi zaruriy shart hisoblanadi. Sanoat mulki ob'ektlari (ixtiro), foydali model, sanoat namunasi tovar (xizmat) belgisidan foydalanish, shuningdek seleksiya yutuqlaridan, nou-xaudan foydalanishga berilgan litsenziya Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilishi shart, aks holda FKning 112-moddasi 1-qismiga asosan ular mutlaq (o'z-o'zida) haqiqiy hisoblanmaydi. Garchi qonunlarda bevosita talab qilinmasa ham, yaratilish fakti bo'yicha mutlaq huquq vujudga keladigan va huquqiy muhofaza qilinadigan ob'ektlardan foydalanishga litsenziya berish haqidagi shartnomalar notarial tartibda guvohlantirilmog'i maqsadga muvofiqdir;

- hozirgi kunda shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish turli davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolik kodeksining 111-moddasida nazarda tutilgan qoidalar to'la-to'kis va amaliyotda to'g'ri tadbiiq qilinishi uchun, shuningdek davlat manfaatlaridan xoli bo'lgan respublikada shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazadigan yagona tizim tashkil qilinsa va bu haqda maxsus qonun qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yil 26-noyabr kuni halq deputatlari Namangan viloyati kengashining navbatdan taqari sessiyasida so'zlagan nutqi. 26-noyabr 2015-yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yil 5-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinganligining 23-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 5-dekabr 2015-yil.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T:"O'zbekiston".2016. – 56 b.
4. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib- intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T:"O'zbekiston".2017. – 104 b.
5. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va halq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7-dekabr. /SH.M.Mirziyoev.- Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -48 b.
- 6.Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavog'zmiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU 2016. 56 b.

O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari.

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston». 2016.
- 2.O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. (2016 yil 1 iyulgacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan). To'plam. "Adolat" nashriyoti.
- 3.O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi. (2016 yil 1 iyulgacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan). To'plam. "Adolat" nashriyoti.
- 4.O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi. (2016 yil 1 iyulgacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan). To'plam. "Adolat" nashriyoti.

5.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. “O‘zbekiston Respublikasi kodekslari”. (2016 yil 1 iyulgacha bo‘lgan o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan). 1997y.30 avgust.To‘plam. “YUrist-mediya markazi” nashriyoti.

5.O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. “O‘zbekiston Respublikasi kodekslari”. 2008y.(2016 yil 1 iyulgacha bo‘lgan o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan). To‘plam. “YUrist-mediya markazi” nashriyoti.

6.O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. “O‘zbekiston Respublikasi kodekslari”.2014 yil. (2016 yil 1 maygacha bo‘lgan o‘zgarish va qo‘shimchalar bilan). To‘plam. “YUrist-mediya markazi” nashriyoti.

7.O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, №9, 170-modda.

8.O‘zbekiston Respublikasining «Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonuni. 2000 yil 14 dekabr.

9.O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 7-modda. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 yil, № 1, 10-modda; 2004 yil, № 1-2, 18-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil, № 10, 536-modda).

10.O‘zbekiston Respublikasining “CHet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi Qonuni. 5-modda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 yil, № 5-6, 91-modda; 1999 yil, № 9, 229-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2006 yil,10.10. O‘RQ-59, №-;).

11.O‘zbekiston Respublikasining qonuni.»Sudlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual va xo‘jalik protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida.(O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami, 2017 y.,15-son,242 modda)Qonunchilik palatasi tomonidan 2017 yil 18 martda qabul qilingan.Senat tomonidan 2017 yil 28 martda ma’qullangan.2017 yil 12 aprel .

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini

yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi.-Toshkent.2017 y.7 fevral PF – 4947-son.

13.2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-46-947-sonli Farmoniga 1-ILOVA.dan.

Maxsus adabiyotlar:

1. Abdulxasanova R. Erkinlik, ixtiyoriylik – shartnomaviy munosabatlar asosi. Xo'jalik va huquq. 1999. 5-son.
2. Braginskiy M, Vitryanskiy V. Dogovornoe pravo. –M.: Statut. 1997.
3. Grajdanskoe pravo. Uchebnik. T.2. E.A.Suxanov tahriri ostida. –M.: Bek. 1993.
4. Grajdanskoe, trgovoe i semeynoe pravo kapitalisticheskix stran. -M.: YUr. lit. 1994.
5. Grajdanskoe pravo. T.2. -M.: BEK. 1994.
6. Grajdanskoe pravo. Pod. Red. A.P.Sergeeva, YU.K.Tolstogo. –SPb. 1996.
7. Grajdanskoe pravo. CH.Z. -M.: Prospekt. 1998.
8. Grajdanskoe pravo. Pod. red. A.P.Sergeeva, YU.K.Tolstogo. –M.: Prospekt. 2003.
9. Zokirov I., Oqyulov O., Baratov M., Mehmonov Q. Mulk huquqi. –T.: TDYUI nashriyoti, 2006.
10. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik. 1 qism. –T. TDYUI nashriyoti, 2009.
11. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro Bill. -T.: Adolat. 1992.
12. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharhlar. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi. 1998.
13. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharhlar. – T.: O'zbekiston, 2008.

14. Mualliflar jamoasi. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. (II). -T.: TDYUI. 2009.
15. Mualliflar jamoasi. SHartnoma huquqi. /Huquqshunoslik ixtisosi bo‘yicha oliy o‘quv yurtlari magistratura talabalari uchun. –T.: TDYUI nashriyoti, 2006.
16. Mualliflar jamoasi. SHartnoma huquqi. –T.: TDYUI. 2006.
17. Rahmonqulov H. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. -T.: Iqtisodiyot va xuquq dunyosi. 1997.
18. Rahmonqulov H. Oldi-sotdi shartnomasi. –T.: Adolat. 2000.
19. Rahmonqulov H.R. Zakonodatelnye istochniki grajdanskogo prava RUz i zadachi po ix sovershenstvovaniyu. Fuqarolik qonunchiligi: muammo va echimlar mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. –T.: TDYUI. 2004.
20. Ro‘ziev J. AQSHda tadbirkorlik: ijtimoiy iqtisodiy va huquqiy masalalar. -T.: Fan. 1991.
21. Tixomirov YU.A. Dogovory i ekonomika. –M.: Ekonomika. 1993.
22. Topildiev V. YUridik shaxslar ta’sis hujjatlarining fuqarolik huquqiy muammolari. YU.f.n., diss. Avtoreferat. –T.: 2005.
23. Toshev B. Mualliflik huquqi. -T.: Meros. 1997.

Internet ma’lumotlari:

1. “NORMA” Axborot huquqiy tizimi. <http://www.norma.uz>.
2. <http://www.lex.uz>
3. <http://www.gov.uz>.Fuqarolik kodeksi. SHartnoma huquqi.